

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK: _____

JUMAYEV ABROR BAHODIROVICH

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMG'ARIB
BORILADIGAN PENSIYA TIZIMINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Mutaxassislik: 5A231301 – “Pensiya ishi”

Magistr akademik darajasini olish ushun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

B.S.Mamatov

TOSHKENT – 2017

M U N D A R I J A

KIRISH.....

I BOB. JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY VA NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....

- 1.1. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining mazmun-mohiyati va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati.....
 - 1.2. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari.....
 - 1.3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini tashkil etishning xorij tajribalari.....
- I bob bo'yicha xulosa.....

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TIZIMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....

- 2.1. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larning shakllanish amaliyoti tahlili.....
 - 2.2. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larning sarflanishi va investitsiya maqsadlarida foydalanish amaliyoti tahlili.....
 - 2.3. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida nazorat va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlili.....
- II bob bo'yicha xulosa.....

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....

- 3.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi o'ziga xos muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....
 - 3.2. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlash omillari.....
 - 3.3. Xorij mamlakatlarining jamg'arib boriladigan pensiya tizimi tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari va rivojlantirish istiqbollari.....
- III bob bo'yicha xulosa.....

XULOSA VA TAKLIFLAR..... **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....** **ILOVA.....**

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish har qanday davrda ham davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim, eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki odamlarning turmush tarzi, kayfiyati, amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabati qanday bo'lishi, avvalo, ular qay darajada ijtimoiy himoyalanganligi bilan bevosita bog'liq. Ijtimoiy sohani rivojlantirish 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining muhim bir yo'nalishi sifatida qabul qilinishi¹ sohaning davlat ijtimoiy siyosatida dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

O'zbekistonda ijtimoiy sohaga jamiyat e'tiborini kuchaytirish, manzilli ijtimoiy himoyani kafolatlash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatimizni taraqqiy ettirishning milliy modeli asosini tashkil qiladigan besh tamoyilning biri ham kuchli ijtimoiy siyosat yuritishdan iborat. Mazkur tamoyil asosida mustaqillik yillarida mamlakatimizda beqiyos ishlar amalga oshirildi. Avvalo, ijtimoiy soha, xususan, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasi tubdan isloh qilindi. Bu boradagi qonunchilik asoslarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Shuni alohida qayd etish joizki, 2050-yilga kelib, O'zbekiston umumiy aholisi sonida keksa kishilar ulushi 20 foizga etadi. Bu haqda "HelpAge International" xalqaro xayriya tashkiloti tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hamkorligida tuzilgan va 1-oktyabr – xalqaro keksa kishilar kunida e'lon qilingan "Global AgeWatch Index 2014" reytingi natijalari guvohlik bermoqda. Ayni paytda O'zbekistonda pensionerlar soni umumiy aholining 9,1 foizini tashkil etadi. 2030-yilda ushbu ko'rsatkich 11,6 foizga, 2050-yilda esa 19,4 foizga etadi. Mana shu holat va yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi, o'z navbatida, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida jamg'arib boriladigan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

pensiya ta'minotining mazmuni va ahamiyatini, jamg'arib boriladigan pensiya aktivlarini samarali joylashtirish masalalarini chuqur tadqiq etish va shu asosda mazkur tizimni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi va magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi va faoliyati tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tadqiqot predmetini jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi bilan bog'liq bo'lgan huquqiy va iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarning bajarilishiga asoslanadi:

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimining mazmun-mohiyati, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyatini yoritish hamda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining huquqiy-me'yoriy asoslarini o'rganish va tizimlashtirish;
- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini tashkil etishning xorij tajribalarini tadqiq etish;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larning shakllanish amaliyotini tahlil qilish va ular yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirish;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larning sarflanishi va investitsiya maqsadlarida foydalanish amaliyotini tahlil qilish va unga oid tendentsiyalarni aniqlash;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida nazorat va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi o'ziga xos muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqish;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlash omillarini aniqlash;

– xorij mamlakatlarining jamg'arib boriladigan pensiya tizimi tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari yuzasidan taklif-tavsiyalarni shakllantirish.

Ilmiy yangiligi:

– jamg'arib boriladigan pensiya mazmun-mohiyati tavsiflangan, ushbu tizimning ijobiy va salbiy jihatlari aniqlanib, ularga baho berilgan, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan va tavsiflangan;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimining vazifalari va funksiyalari aniqlangan hamda aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashdagi roli ochib berilgan;

– O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi holati tadqiq qilinib, unga oid tendentsiyalar aniqlangan va ilmiy xulosalar shakllantirilgan;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimidagi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larning shakllanishi hamda sarflanishi mutanosibligini ta'minlash omillari aniqlangan va ular yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirilgan;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimini tashkil etishning xorij tajribalari asosida mamlakatimizda ushbu tizim taraqqiyotini ta'minlashga, takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi istiqbolda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimida AT Xalq bankining rolini oshirish orqali pensiya tizimi samaradorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Pensiya ta'minoti tizimi, davlat pensiya ta'minoti, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog'liq

masalalari bir qancha xorijlik olimlar² – Борисенко Н.Ю., Романченко В.С., Костюнина Г.М., Федотов А.И., Jun Peng, Quiesser M. – tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlardan³ D.Q.Axmedov, A.V.Vahobov, T.S.Malikov, Shoha'zamiy Sh.Sh., Sh.Allayarov, D.Toshmuxammedova, M.X.Saidov, G.A.Kasimova, A.A.Botirovlar davlat pensiya ta'minoti, moliyaviy nazorat, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti kabi mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar, bu borada dissertatsiyalar yozildi.

Yuqoridagi ilmiy ishlardan farqli o'laroq, ushbu magistrlik dissertatsiya ishida jamg'arib boriladigan pensiya tizimi samaradorligini oshirish masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot jarayonida dinamik, qiyosiy, deduktik, mantiqiy, analitik, sintetik va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirishga oid davlat dasturlari ishlab chiqilishida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti" fanining o'quv dasturini o'qitishda va takomillashtirishda foydalanish mumkin.

² Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К0», 2009.; Романченко В.С. Сравнительный анализ международного опыта развития пенсионной системы. Вестник МИЕП. 2015. № 3 (20). С. 58-73.; Костюнина Г.М. Реформирование пенсионных систем в странах Латинской Америки // Труд за рубежом. – 2007. – №3. – С.79-97.; Федотов А.И. Анализ моделей построения пенсионных систем // Труды ИСА РАН. 2008. № 38. С. 168–173.; Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 288 p.; Quiesser M. Pension Reform: Lessons from Latin America. OECD Development Center. Policy Brief №15. – Geneva, 1999.

³ Axmedov D.Q. Ijtimoiy ta'minot huquqi. Mas'ul muharrir: yu.f.d. I.Nasriev. – T.: TDYuI nashriyoti, 2008. 202-b.; Vahobov A. V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. Toshkent Moliya instituti. – Toshkent, 2008. – 322-b.; Shoha'zamiy Sh.Sh. Pensiya ta'minoti tizimi investitsion modelining qiymatli antiinflatsion kontseptsiyasi. "Moliyachi ma'lumotnomasi" jurnali, 9-son, 2015. 35-36-b.; Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta'minoti. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. 102-b.; Saidov M.X. Ijtimoiy himoya. Atamalar izohli lug'ati. – T.: "A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti", 2004. 73-b.; Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. 118-b.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, 9 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining mazmun-mohiyati va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari hamda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini tashkil etishning xorij tajribalari yoritilgan va ular yuzasidan qisqa xulosalar shakllantirilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining ikkinchi bobida jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larning shakllanish amaliyoti, jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larning sarflanishi va investitsiya maqsadlarida foydalanish amaliyoti tahlil qilingan va ularga oid tendentsiyalar aniqlangan. Shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya tizimida nazorat va uning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan.

Magistrlik dissertatsiya ishining uchinchisi bobida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi o'ziga xos muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlash omillari tadqiq qilingan hamda xorij mamlakatlarining jamg'arib boriladigan pensiya tizimi tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining xulosa qismida mavzu yuzasidan umumlashgan xulosalar shakllantirilgan hamda O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining ilova qismida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining qonuniy asosini tashkil qiluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar va ulardagi imtiyozlar aks ettirilgan.

I BOB. JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY VA NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining mazmun-mohiyati va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati

Bozor munosabatlarining rivojlanishi, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlari o'rtasidagi o'zaro nisbatning o'zgarib borishi ijtimoiy ta'minot tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Davlat o'z fuqarolari turmush farovonligini yanada oshirish uchun tegishli qonunlar orqali zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib, har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Jumladan, qariyalarni ulug'lash, ularga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatish va nafaqa yoshiga etganda ularga qo'shimcha madad berish maqsadida, 2005-yil 1-yanvardan boshlab respublikamizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti amal qila boshladi⁴. Bu aholi uchun davlat pensiyasiga qo'shimcha daromad manbai bo'lib, birinchidan, fuqarolarni yosh, mehnatga layoqatli davrda yanada yaxshiroq ishlash va ko'proq daromad topish orqali o'zining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi mablag'lar summasining oshishiga turtki bo'lsa, ikkinchidan, bu mablag'lar fuqaro va ish beruvchilarning moddiy holatiga ta'sir etmagan holda davlat byudjetiga o'tkazilishi kerak bo'lgan daromad solig'i hisobiga shakllanadi. Ya'ni, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti davlat tomonidan to'lanadigan pensiya to'loviga qo'shimcha ravishda fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini anglatadi. Fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida jamg'argan pul mablag'larini pensiyaga chiqqandan so'ng yoki qonunchilikda belgilangan boshqa holatlarda olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Aytish joizki, jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotgan fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 595-sonli Qarorining 1 va 2-bandlari.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga tartib raqami berish fuqarolarning pasportidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'larini, jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag'larini anglatadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi (badal kirituvchi) – jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlashga jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti deyiladi.


Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i – fuqaroning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobvarag'i bo'lib, badal kirituvchilarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi mablag'larga hisoblab qo'shilgan foizlar ana shu hisobvaraqqa kelib tushadi hamda unda hisobga olinadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qo'llaniladigan tushunchalar mazmun-mohiyatining qonunchilikka ko'ra tavsifi 1.1-rasmda keltirilgan.

Jamg'arib boriladigan pensiya iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo'qotish bilan bog'liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlardan moliyalashtirilishi jamg'arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining o'ziga xos xususiyati davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalardan pensiyalarni moliyalashtirilishidir. “Jamg'arib boriladigan pensiya” iqtisodiy kategoriya sifatida

pul mablag'larining maqsadli fondlarini shakllantirib, keksalik chog'ida foydalanish shakl va usullarini yig'indisini o'z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.



1.1-rasm. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qo'llaniladigan asosiy tushunchalarning mazmuni va mohiyati⁵


Aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishda pensiyalari muhim o'rin egallaydi.

Shu munosabat bilan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida fuqarolarning

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 2 dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni va mualliflar Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. materiallari asosida.

pensiya ta'minoti bo'yicha huquqlarini davlat tomonidan kafolatlanishini kuchaytirish va pensiya tizimini barqaror rivojlantirish shart-sharoitlarini yaratish maqsadida mamlakatda pensiya tizimi, shu jumladan, jamg'ariladigan pensiya ta'minoti isloh qilinmoqda.

Pensiya tizimi yordamida jamiyat hal qiladigan vazifalar quyidagi 1.2-rasmda ifodalangan:




1.2-rasm. Pensiya tizimi yordamida jamiyat hal qiladigan vazifalar⁶

Pensiya ta'minoti ijtimoiy himoyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan ijtimoiy ta'minotning o'zagini tashkil qiladi. Ijtimoiy himoya – keng ma'noda – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan etarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka

⁶ Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. 118-b.

muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rligidir⁷. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

“O'zbek modeli”ning besh tamoyilidan biri – kuchli ijtimoiy himoya – aholining turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda, fuqarolarni ijtimoiy himoyalash sohasidagi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish lozimligini anglatadi. Bugungi kunda ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlarini quyidagicha ifodalash mumkin:



1.3-rasm. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari⁸

O'zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqalarga qaratilgan ijtimoiy himoya yo'nalishlarini 1.4-rasm orqali aks ettirish mumkin.

⁷ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: “O'ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom. 69-b.

⁸ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: “O'ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom. 69-b.



1.4-rasm. O'zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqalarga qaratilgan ijtimoiy himoya yo'nalishlari⁹

⁹ O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari asosida shakllantirildi.

Ijtimoiy himoyaning ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish yo'nalishi, o'z navbatida, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini ham qamrab oladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining zarurligi keksalarga moddiy yordam berish ehtiyoji bilan bog'liq. Shu bois jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini ko'paytirish va ushbu tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim vazifadir. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi ishtirokchilari, asosan, ish bilan band aholi ekanligini inobatga oladigan bo'lsak mamlakatimizda bandlik muammosini hal etishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi hozirda respublikada pensiya ta'minotiga oid bir nechta funksiyalarni amalga oshirmoqda:

- fuqarolarni qarilikda amaldagi davlat pensiya ta'minoti tizimidan oladigan pensiyasiga qo'shimcha ravishda daromad bilan ta'minlamoqda;

- davlat pensiya ta'minotini tartibga solishda doimiy tizimli ravishda nazoratni amalga oshirishda ko'mak bermoqda. Xususan, fuqarolarni 2005-yildan boshlab ishlagan davrlari uchun mehnat stajini va oylik ish haqi miqdorini tasdiqlovchi hujjat vazifasini bajarmoqda;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi moliyaviy resurslari ma'lum miqdorda iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion manba vazifasini o'tamoqda.

Har bir mamlakatda jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy etishda demografik omillardan tashqari mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy omillar ham inobatga olinadi. Hozirgi demografik vaziyatdan kelib chiqqan holda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi ko'plab ijobiy jihatlarga ega. Jumladan:

- har kim o'zi pul to'lab, pensiyasini jamg'arib borganligi sababli tizimga demografik omillarning salbiy ta'sir etmasligi;

- tizimni joriy etish ham davlat, ham xususiy sektor tomonidan amalga oshirilishining mumkinligi;

- jamg'arilgan mablag'lardan investitsion faoliyatda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

- mamlakat byudjetiga og'irlik tushirmasligi.

Mazkur tizimning kamchiligi esa iqtisodiy inqirozlar davrida moliyaviy yo'qotishlarning yuzaga kelishi, investitsion jarayonga uzviy bog'langanligi sababli risklilik darajasining yuqoriligi kabilardir. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi "birdamlik printsiipi"ga asoslanuvchi tizimdan farqli ravishda pensiyaga chiquvchiga o'zining to'lagan sug'urta badallariga binoan pensiya to'laydi va iqtisodiy adolatni ta'minlashga qaratiladi va demografik o'zgarishlarga ta'sirchan emas.

Mazkur tizimning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- jamg'arib boriladigan pensiya umumiy va majburiy xarakteri, ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirishdagi imtiyozlar kishining ijtimoiy himoyalaniish huquqining ta'minlanishi;

- jamg'arib boriladigan pensiya majburiy va ixtiyoriy shakllarning birligi, teng huquqliligi shaxsning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan zaruriy darajasining ta'minlanishi va uning keksalik chog'ida yaxshi yashashi uchun ta'sir ko'rsatishi;

- turli xil pensiya tizimining bir vaqtning o'zida amal qilishidagi mustaqilligi va o'zini-o'zi idora qilish sharoitida majburiy jamg'arib boriladigan pensiya bo'yicha to'lovlarning davlat tomonidan kafolatlanishi;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxs va ish beruvchini moliyaviy ishtirokinining majburiyiligi;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxsga uning jamg'argan badallari hisobidan turli shakldagi xizmatlar ko'rsatilishining ta'minlanishi;

- aholining tegishli ijtimoiy kategoriyalarni qamrab oluvchi kishilar guruhi yoki mamlakat aholisining u yoki bu pensiya ta'minot turidan manfaatdorligi;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi barcha shaxslarning harajatlarini moliyalashtirish bo'yicha majburiyat va natijada ega bo'lingan xuquq va kafolatlar nuqtai nazaridan tengligining ta'minlanishi.

1.2. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari

Ma'lumki, O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 595-sonli Qarori va unga ilova qilingan Nizomlar¹⁰, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-110-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006-yil 7-oktyabrda 88-sonli va 282-V sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom shular jumlasidandir. Mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatlarda jamg'arib boriladigan pensiya tizimini tartibga solish masalalari, imtiyozlar va kafolatlar, rag'batlantirish omillari va preferentsiyalar ko'zda tutilgan (1-ilova).

Davlat pensiyasiga chiqqanlarni qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash, fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining yangi shakli sifatida

¹⁰ "Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risida"gi, "Fuqarolarning Xalq bankidagi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni to'lash tartibi to'g'risida"gi, "Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag' to'lash tartibi to'g'risida"gi hamda "Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi to'g'risida"gi Nizomlar.

jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qonun 4 ta bo'lim va 27 ta moddadan iborat bo'lib, unda:

- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqi;
- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha davlat kafolatlari;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etish;
- fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish;
- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish;
- jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi;
- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larning shakllantirilishi;
- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini shakllantirish;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan foydalanish;
- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga mablag'larning kelib tushishi va ulardan foydalanilishi ustidan nazorat;
- jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larini soliq solishdan ozod qilish;
- jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish;
- jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi;
- jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini ayrim hollarda olish huquqi;
- jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi to'g'risidagi guvohnoma;
- jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olishda tanlash huquqi;
- jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini to'lash;
- jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining huquqlari va majburiyatlari;
- jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilarning majburiyatlari;
- Xalq bankining huquqlari va majburiyatlari;
- jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari to'lashni tugatish;
- jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini ushlab qolish yoki to'xtatib turish kabilar bo'yicha tartib-qoidalar aks ettirilgan.

“Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish va pensionerlarning farovonligini qo’shimcha ravishda oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrda “Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 595-sonli Qarori qabul qilinib, unga muvofiq, 2005-yil 1-yanvardan boshlab amaldagi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimiga qo’shimcha ravishda jamg’arib boriladigan pensiya tizimi joriy etildi.

Jamg’arib boriladigan pensiya tizimining barqaror ishlashini va texnika bilan tegishli darajada jihozlanishini ta’minlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi “Jamg’arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-110-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorga asosan fuqarolarning yakka tartibdagi jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar byudjetga to’lanadigan soliqlar va majburiy to’lovlarga tenglashtirildi hamda 2005-yilning 1-iyulidan boshlab barcha yuridik shaxslar fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallar ajratishni jismoniy shaxslar daromad solig’ini byudjetga belgilangan shakl va muddatlarda to’lash bilan birga amalga oshirib kelmoqdalar.

“Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to’g’risida”gi Nizom asosida jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan, moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi belgilab berildi. Shuningdek, jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini samarali joylashtirishni tashkil etish maqsadida Moliya vazirligi, Markaziy bank va Xalq bankining vakillaridan iborat bo’lgan Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo’yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Ushbu Kengashning vazifalari va huquqlari belgilab berildi.

Xullas, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga doir qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimdagi qonunchilik bazani takomillashtirish, tizim infratuzilmasidagi o'zara hamkorlik aloqalarini ta'minlash, tizimning moddiy-texnik bazasining sifatini va jihozlanganlik darajasini yaxshilash imkonini beradi.

Ish beruvchilarning, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga fuqarolarni hisobga qo'yish, shuningdek shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish uchun O'zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalida elektron ariza berishga haqli.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish;
- jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini berish.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini yuritishga doir hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga taalluqli ma'lumotlar Xalq bankining yagona ma'lumotlar elektron bazasida shakllantiriladi va saqlanadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochadi. Shaxsiy jamg'arib

boriladigan pensiya hisobvaraqlariga tartib raqami berish fuqarolarning pasportidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Fuqarolarning yashash yoki ish joyi yoxud pasportidagi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i tartib raqami o'zgarishsiz qoladi va yangi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i ochish talab etilmaydi. Fuqaroning jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqini tasdiqlovchi jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi fuqaroga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i ochilganidan keyin Xalq banki tomonidan beriladi.


Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasida hisobga olingan sana, fuqaroning shaxsiga oid ma'lumotlar, shu jumladan, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining tartib raqami, shuningdek, boshqa zarur ma'lumotlar ko'rsatiladi. Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini berish tartibi va bunday daftarcha shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi yo'qotib qo'yilgan (yo'qolgan) taqdirda uning dublikati shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining o'sha tartib raqami qo'yilgan holda beriladi.

Jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'ining tegishlicha kamaytirilgan summasi hisobiga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi har oyda to'lab boradi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, ish beruvchi yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari tomonidan Xalq banki filialiga fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma'lumotlarni, fuqarolarning shaxsiga oid ma'lumotlar bilan bog'liq o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan taqdim etmaslik yoki noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etganlik, jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini kiritishdan bosh tortish, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish, ushbu hisobvaraqlarning holati to'g'risida fuqarolarni xabardor qilish, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini tayinlash va berish tartibini buzish, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanish tegishli miqdorda jarima solishga

sabab bo'ladi¹¹. Ushbu qonuniy choralar, o'z navbatida, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi ishtirokchilarining shaxsiy javobgarligini va mas'uliyatini yanada oshiradi.


“Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risida”gi Nizom jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarni shaxsiy hisobga qo'yishni tashkil etishning normativ-huquqiy asosini, printsiplari va mexanizmlarini belgilab beradi va Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi (1.5 va 1.6-rasmlar).



1.5-rasm. Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritishda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar mazmuni¹²

¹¹ O'zbekiston Respublikasining 2005-yil 23-sentyabrdagi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni.

¹² Amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida shakllantirildi.



1.6-rasm. Xalq bankida fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni kiritish tartibida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar mazmuni¹³

Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsiy hisobga olishning maqsadi quyidagilardan iborat:

- fuqaroning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashishi to'g'risidagi ma'lumotlar hisobga olinishining to'liqligini ta'minlash, badal kirituvchilar tomonidan shaxsiy pensiya to'lovlarini oluvchi foydasiga amalga oshiriladigan shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar kiritish davrlari va miqdorlari, mablag'larni joylashtirishdan olingan foizli daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar ham shu jumlagi kiradi;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimining qatnashchilari va ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga omonatlari to'g'risidagi Xalq bankining jamg'arib boriladigan pensiya tizimi yagona ma'lumotlar elektron bazasini yaratish;

¹³ Amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida shakllantirildi.

- mablag'larning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga to'g'ri o'tkazilganligini tezkor nazorat qilish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchilariga jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari tayinlash tartibini soddalashtirish va tartib-qoidasini tezlashtirish.

Bir vaqtning o'zida quyidagi printsiplarga asoslaniladi: jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashayotgan fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobining majburiyligi, to'liqligi va tezkorligi; shaxsiy hisobga olish ma'lumotlarining maxfiyligi, ushbu ma'lumotlardan faqat jamg'arib boriladigan pensiya tizimi maqsadlari uchun foydalanish; jamg'arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchilari bo'lgan fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimidagi o'zlarining hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishi.

Xalq banki shaxsiy hisobga olishni amalga oshiruvchi hisoblanadi. Shaxsiy hisobga olish quyidagilarni o'z ichiga oladi: fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish; ish davrlari (o'zgarishlar) va hisobga olingandan keyingi ish davri uchun shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar to'lash miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish; jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari miqdorini belgilash va unga tuzatish kiritish jarayonini axborot bilan ta'minlash.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi qatnashchilari, pensiya badallari summasining miqdori va harakati, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga pensiya jamg'armasi to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va "Bank siri to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan himoyalangan.

Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari quyidagi hollarda to'xtatiladi:

- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ida jamg'arilgan mablag'lar batamom tugaganda;

- to'lovlarni oluvchi shaxsiy jamg'arib borilgan pensiya hisobvarag'ida jamg'arilgan jami summani merosga o'tkazish maqsadida to'lovlarni olishdan yozma ravishda notarial tasdiqlangan tartibda voz kechganda;

- davlat pensiyasi olish huquqini yo'qotganda.

Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining miqdori xodimlarning, shu jumladan, ishlayotgan pensionerlarning ish haqi va boshqa daromadi summasi asosida hisoblab chiqariladi hamda har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan navbatdagi yilga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini shakllantirish vaqtida belgilanadi. Ish beruvchiga o'zining mablag'lari hisobidan o'z xodimlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo'shimcha badallar to'lash huquqi beriladi. Qo'shimcha badallarining miqdori va ularni kiritish muddatlari jamoa shartnomasida, agar bunday shartnoma tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kelishib belgilanadi. Ish beruvchining jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini to'lashi uchinchi shaxslarning foydasiga amalga oshirilishi mumkin emas.

Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan berilgan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida bunday to'lovlarni oluvchining yashash joyidagi Xalq banki filiali tomonidan to'lanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari ularni olish uchun murojaat etilgan oydan keyingi oydan e'tiboran, lekin bunday to'lovlarni oluvchida davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgach, to'lanadi. Bunday to'lovlarni oluvchilar shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag'larni qonun hujjatlariga muvofiq berilgan hujjatlar asosida ishonchli shaxslar orqali olishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq 2010-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyoz jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlarini O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalariga kamaytirish (soliq chegirmasi) tarzida beriladi. Soliq chegirmasi soliq solinadigan ish haqi va

(yoki) boshqa daromadlarini o'zining jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriy ravishda o'tkazgan jismoniy shaxsga beriladi. Soliq chegirmasi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan summaga, jismoniy shaxsning hisoblangan daromadi miqdorida beriladi. Bunda ish beruvchi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan mablag'larni ish haqini to'lash muddatidan kechiktirmay o'tkazishi zarur. Agar jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy badallar tarzida tushgan mablag'lar soliq davri tugaguniga qadar to'lanadigan bo'lsa, ushbu mablag'larga jismoniy shaxsning jami yillik deklaratsiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Amaldagi jamg'arib boriladigan pensiya tizimining faoliyatida bank, ish beruvchi tashkilot, fuqaro hamda soliq idoralari ishtirok etadi va ishlash mexanizmini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin:

1. Ish beruvchi muassasada ishlovchi har bir xodim uchun belgilangan tartibda jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga to'lanishi lozim bo'lgan badallarni hisoblab chiqadi hamda hisoblangan summani har oyda xodimning Xalq bankidagi shaxsiy hisobraqamiga o'tkazib boradi;

2. Xalq banki fuqarolarning ish haqlaridan tizimga majburiy va ixtiyoriy ravishda undiriladigan badallarni to'playdi va uning hisobini yuritadi. Xalq banki jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shakllangan mablag'ni tasarruf etadi va mablag'larni eng past riskli investitsion dasturlarga yo'naltirish orqali daromad oladi, har bir hisobraqamda jamlangan mablag'lar bo'yicha foizli daromadlarni hisoblab boradi. Xalq banki va soliq idoralari tizimga to'lanayotgan badallarning to'g'ri hisoblab chiqilganligi va o'z vaqtida o'tkazib borilayotganligini doimiy va tizimli ravishda nazorat qilib boradi;

3. Fuqaro davlat pensiya ta'minoti huquqi paydo bo'lgach, Xalq bankiga jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamida to'plangan mablag'ni olish uchun murojaat qiladi. Bank ma'muriyati esa to'plangan summani hisoblab chiqarilgan foizlar bilan birgalikda fuqaroga to'lab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 29-avgustda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 2004-yil 21-dekabrda 595-sonli qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 250-sonli Qarori tasdiqlandi. Mazkur Qaror ijrosi yuzasidan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali elektron tarzda fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimiga hisobga olish hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar reestrini yuborish interaktiv xizmatlari amaliyotga joriy etildi. Bunday holat pensiyalarning to'g'ri va aniq hisob-kitob qilinishini, o'zaro axborot almashinuvining tezkorligi va shaffofligini, pensiya oluvchi fuqarolarga katta qulayliklar yaratilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli qaroriga ko'ra, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha ajratmalar 2 foiz miqdorida belgilandi. Bunday holat jamg'ariladigan pensiya hisobvaraqlariga ko'proq mablag' yig'ilishini va kelgusida ko'proq mablag' aholi ixtiyorida bo'ladishini bildiradi hamda aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish va qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1.3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini tashkil etishning xorij tajribalari

XX asrning 80-yillaridan boshlab, tug'ilishning kamayishi va fuqarolar yashash davomiyligining uzayishi natijasida aholining keksayishi bilan bog'liq ravishda taqsimlovchi pensiya tizimida muammolar kuzatila boshlandi. Bu muammolar pensiya tizimida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga chiqardi. Uning echimi sifatida 1994-yilda Jahon banki va Xalqaro valyuta

fondi tomonidan jamg'ariladigan pensiya tizimi modeli ishlab chiqildi¹⁴. XIX asr oxirida Boliviya, Chili, Salvador, Meksika va Qozog'iston jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tdi. Ayrim davlatlarda jamg'ariladigan pensiya tizimi 1980-1990-yillarda amal qila boshladi (1.1-javdal).

1.1-jadval

Jamg'ariladigan pensiya tizimining shakllanish evolyutsiyasi¹⁵

Pensiya dasturi	Davr	Mamlakat	Izoh
Jamg'ariladigan pensiya ta'minoti	1951	Malayziya	Barcha ishchi qatlamini hamrab oluvchi jamg'arma kassasi joriy qilingan
	1980	Chili	Majburiy jamg'ariluvchi pensiya tizimi joriy qilingan
	1985	Shvesariya	
	1986	Buyuk Britaniya	
	1990	Daniya	
	1993	Kolumbiya	
	1994	Argentina	
	1997	Meksika	
	1998	Vengriya	
	1999	Polsha	

O'zbekistonda faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakllarni qo'llashni talab etadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimini takomillashtirish va undan samarali foydalanish ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag'allikdan himoyalashda muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va kelgusida fuqaroning moddiy ta'minotini ko'paytirishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir.

Pensiya ta'minoti tizimi oldida quyidagi muhim maqsadlar turadi:¹⁶ keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash; mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga proportsional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash; bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash. Qolaversa, pensiya tizimining

¹⁴ Majidov N. Niyazov M. Pensiya tizimini tartibga solishning xorij tajribasi. "Biznes-ekspert" jurnali, 2016. 11-son. 40-b.

¹⁵ www.pensionfundsonline.co.uk.

¹⁶ Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // - Toshkent: Moliya, 2010. - № 4. 21-27-b.

barqaror amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning garovi hisoblanadi va aksincha, pensiya ta'minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavfni yuzaga keltiradi¹⁷. Ana shu maqsadlar qisman bo'lsa-da jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga o'tilishining zarurligini ifodalaydi.

Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi va moliya guruhi "Citigroup" tadqiqotlari ko'rsatishicha, agar rivojlangan mamlakatlar Hukumati tomonidan keksa fuqarolarga to'lanayotgan pensiya miqdorlarini oshirmagan taqdirlarida ham 2050-yilga borib, prognoz qilingan pensiya xarajatlari YaIMning 30 foizigachani tashkil qiladi. Bu miqdor bugungidan ikki barobar ko'pdir va ushbu davlatlar pensiya fondlari prognoz ko'rsatkichlaridan ham ikki barobar ko'pdir. 2050-yilga borib, industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlar tomonidan YaIMning 13 foizini pensiya ta'minoti to'lovlariga sarflanishi kutilmoqda. Oxirgi o'n yillikda tug'ilish darajasining kamayishi, pensiya miqdorining yuqoriligi va pensiyaga chiqish yoshining nisbatan kichikligi kuzatilayotgan Evropa mamlakatlari jiddiy muammolarga duch kelishadi. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida (Skandinaviya, Buyuk Britaniya va Irlandiya mamlakatlaridan tashqari) yaqin yillarda pensiya xarajatlari YaIMning 15,9 foizigacha etadi, bu esa rasmiy statistika ma'lumotlari bilan solishtirilganda 9 foiga ko'pdir. 2050-yilga borib, pensiya va sog'liqni saqlash xarajatlariga YaIMning 37 foizini safarbar qiladi, Gretsiyada bu ko'rsatkich – 45,5 foizni tashkil qiladi. Frantsiyada keksa yoshdagilar YaIMning uchdan ikki qismini iste'mol qiladi. Yaponiya XXI asrning o'rtalariga kelib, YaIMning 17,2 foizini pensiya xarajatlariga safarbar etadi. Ammo, AQShda emigrantlar (muhojirlar) sonining ko'pligi va tug'ilish darajasining yuqoriligi sababli 2050 yilga borib, pensiya xarajatlari YaIMning atigi 2,8 foizini tashkil qilishi kutilmoqda¹⁸.

Yuqoridagi holatlar dunyoning turli mamlakatlarida amal qilayotgan pensiya modellari bo'yicha pensiya tizimining samaradorligi va moliyaviy holati bilan

¹⁷ Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К⁰», 2009. – Стр. 7.

¹⁸ Романченко В.С. Сравнительный анализ международного опыта развития пенсионной системы. Вестник МИЭП. 2015. № 3 (20). С. 58-73.

bog'liq bo'lgan jiddiy masalalarni o'rta qo'ydi. Hozirda amal qilayotgan pensiya modellarini 1.2-jadval asosida ifodalaymiz.

1.2-jadval

Asosiy pensiya modellarining taqqoslama tahlili¹⁹

Belgilar	Lotin Amerikasi pensiya modeli	Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar pensiya modeli	Sobiq sotsialistik mamlakatlar pensiya modeli
Mamlakatlar	Chili	Buyuk Britaniya, Shvetsiya	Vengriya, Polsha, Chexiya, Xorvatiya, Slovakiya
Islohotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari	Demografik va iqtisodiy shart-sharoitlar qulay. Islohotlar boshida mamlakat aholisining yarmini 15 yoshdan kichiklar tashkil qilgan, ishlayotganlar soni esa pensionerlar sonidan 10 marta ko'p bo'lgan	Pensiya tizimini isloh qilish industrial rivojlanish bosqichida. Islohotlarni amalga oshirish davrida demografik omillarda jiddiy o'zgarishlar kuzatilgan	Pensiyaga chiqish yoshining nisbatan kichikligi, pensiya bo'yicha imtiyozlarning ko'pligi, etarli darajada iqtisodiyotning rivojlanmaganligi
Islohotlar tavsifi	Tub islohotlar amalga oshirildi	Parametrlar yondashuv	Tizimli yondashuv
Islohotlar mohiyati	Jamg'arib boriladigan davlat pensiya tizimiga o'tishning majburiyligi va tezkorligi	Avlodlar birdamligi pensiya tizimi etakchi bo'lgan holda pensiya sxemalarini qisman jamg'ariladigan tizim asosida qayta tashkil qilish	Pensiya tizimining taqsimlovchi komponentlarini takomillashtirish orqali pensiya tadbirlarini diversifikatsiyalash va xususiy tizimni yaratish
Islohotlar maqsadi	Ko'p darajali pensiya tizimiga o'tish yoki majburiy jamg'arib boriladigan sxemalar asosida ko'p darajali model joriy qilish	Ikki bosqichli pensiya tizimini yaratish: 1. Umumiy soliqlar hisobidan moliyalashtiriluvchi majburiy davlat tizimi. Minimal daromadni ta'minlaydi 2. Ishchining ish haqiga bog'liq bo'lgan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi (tanlash huquqi asosida davlat pensiya sxemasi yoki xususiy pensiya fondlarida ishtirok etish)	Ko'p darajali tizimni yaratish, uning maqsadi birdamlik sxemasining afzalliklarini jamg'arib boriladigan sxemaning afzalliklari bilan birlashtirish va u uch qismdan iborat: 1. Bazaviy (birdamlik printsipli asosida); 2. Majburiy jamg'arib boriladigan; 3. Xususiy ixtiyoriy sug'urta tizimi

Taqsimlovchi pensiya tizimining muqobil varianti jamg'arib boriladigan pensiya tizimi hisoblanadi va u jamg'arish printsipligiga asoslanadi. Bunday holatda har bir ishchi hisobidan ajratilayotgan pensiya badallari moliyaviy aktivlarga (qimmatli qog'ozlar) investitsiya qilinadi. Bu mablag'lar individual

¹⁹ Романченко В.С. Сравнительный анализ международного опыта развития пенсионной системы. Вестник МИЭП. 2015. № 3 (20). С. 58-73.

hisobraqamlarga joylashtiriladi (taqsimlanadi) va aniq bir fuqaro hisobraqamidagi mablag'lar miqdori uning ish haqiga hamda investitsiyalash natijalariga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellaridan foydalanishmoqda: davlat ijtimoiy ta'minoti; majburiy ijtimoiy sug'urta; xususiy pensiya sug'urtasi va boshqalar. Aslida, taqsimlovchi yoki jamg'arib boriladigan printsip asosidagi pensiya modellari kamdan-kam hollarda sof shaklda topiladi. Asosan, aralash yoki ko'p darajali pensiya tizimlari amal qiladi.

Hozirgi kunda dunyoda pensiya ta'minotining uch bazaviy strategiyasi amal qiladi. Bular jamg'arib boriladigan, birdamlik (taqsimlovchi) va kombinatsiyalashgan (aralash). Aksariyat Evropa mamlakatlarida pensiya ta'minotining aralash strategiyasi qo'llaniladi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda xususiy pensiya fondlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, pensiya tizimini rivojlantirishda jahonning rivojlangan mamlakatlar pensiya tizimi borasidagi tajribalarini o'rganish, ulardan mamlakatimiz pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ijodiy foydalanish zarur.

Turli mamlakatlarda amal qilayotgan pensiya modellarini ko'radigan bo'lsak (1.3-jadval), ular bir-biridan ijtimoiy ta'minot tizimi, pensiya yoshi va sug'urta badallari jihatidan farq qiladi. Jadval ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, turli mamlakatlar pensiya ta'minoti uchun majburiy ajratma stavkalari va uning to'lovlari hamda ish beruvchi va ishlovchilar o'rtasidagi sug'urta yuki taqsimoti turlichadir. Masalalan, Germaniyada pensionerlar oldidagi davlat mas'uliyati tufayli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Bunda pensiya sug'urtasi tizimi, nafaqat, fuqarolarning sug'urta badallari hisobidan, balki davlat tomonidan dotatsiya ko'rinishida ham moliyalashtiriladi.

Dunyo mamlakatlarida pensiya ta'minoti modellari²⁰

Mamlakatlar	Ijtimoiy himoya tizimi	Pensiyaga chiqish yoshi	Sug'urta badallari
Germaniya	Ko'p darajali pensiya tizimi: 1-daraja – pensiya ta'minotining majburiy tizimi; 2-daraja – korxonalar tomonidan to'lanadigan yoshga doir ixtiyoriy pensiya ta'minoti; 3-daraja – ixtiyoriy xususiy pensiya ta'minoti	Ayollar – 60 yoshdan Erkaklar – 67 yoshdan	Ish beruvchilar va ishlovchilar tomonidan turli ulushlarda 20,3 % miqdorida to'lanadi
AQSh	Ko'p darajali pensiya tizimi: 1-daraja – taqsimlovchi pensiya tizimi; 2-daraja – jamg'arib boriladigan pensiya tizimi	Ayollar va erkaklar – 67 yoshdan	Kompaniyalar va ishlovchilar tomonidan turli ulushlarda 10,7 % miqdorida to'lanadi
Shvetsiya	Ko'p darajali pensiya tizimi: 1-daraja – shartli jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti; 2-daraja – individual jamg'arib boriladigan; 3-daraja – ixtiyoriy	Ayollar va erkaklar – 65 yoshdan	1-daraja bo'yicha barcha fuqarolarning daromadlari hisobidan – 16 %; 2-daraja bo'yicha fuqarolarning ish haqi hisobidan – 2,5 %; 3-daraja bo'yicha fuqarolarning ish haqi hisobidan – 10%
Chili	Ko'p darajali pensiya tizimi: 1-daraja – muayyan bir xususiy pensiya fondiga majburiy ajratmalar; 2-daraja – nogrionlik va boquvchisini yo'qotganlik hodisalaridan sug'urtalanish;	Ayollar – 60 yoshdan Erkaklar – 65 yoshdan	Ish haqining 10 % miqdorida
Rossiya	Ko'p darajali pensiya tizimi: 1-daraja – bazaviy majburiy pensiya ta'minoti; 2-daraja – sug'urtaga asoslangan pensiya ta'minoti; 3-daraja – jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti	Ayollar – 55 yoshdan Erkaklar – 60 yoshdan	Ish haqi fondidan 22% (tegishli 6%;10%;6% miqdorida)
O'zbekiston	Ko'p darajali pensiya tizimi: 1-daraja – taqsimlovchi (avlodlar birdamligi va sug'urtaga asoslangan) pensiya tizimi; 2-daraja – majburiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti; 3-daraja – ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti	Ayollar – 55 yoshdan Erkaklar – 60 yoshdan	Korxonalar tomonidan ish haqi fondining 25% (mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari uchun 15%) va fuqarolar tomonidan ish haqining 8% (sug'urta badali); fuqarolar tomonidan ish haqining soliqqa tortiladigan qismining 2 % miqdorida

²⁰ Исламов Ф.Ф., Шарифьянова Л.Ш. Модели пенсионного обеспечения зарубежных стран. – Башкирия: «Институт стратегических исследований». Журнал «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук», N11, 2015 г. – С. 156-159 (<http://publikacia.net/archive/2016/11/1/39>).

Ikki yoki uch darajali (o'zida birdamlik va jamg'arib boriladigan pensiya tizimlarini mujassamlashtirgan) pensiya tizimlari moliyaviy inqirozlar sharoitiga nisbatan barqaror hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar pensiya siyosatida aralash tizimlar rolining ko'chayib borishi kuzatilmoqda. Ammo birdamlik tizimi amaliyotida ko'proq qo'llanilmoqda. Jumladan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a'zo mamlakatlardan 25tasi birdamlik tizimi, 11tasi majburiy jamg'ariladigan, faqat 9 tagina mamlakat ixtiyoriy jamg'ariladigan pensiya tizimi amal qiladi. IHTT mamlakatlarida pensiya to'lovlarining 68 foizini birdamlik tizimiga, 19 foizini majburiy jamg'ariladigan va 13 foizini jamg'ariladigan pensiya tizimlariga tegishlidir. Majburiy pensiya tizimlari orqali pensiya to'lovlarini amalga oshirish yuqori mamlakatlarga Avstraliya (64%), Niderlandiya (66%), Meksikani (86%), ixtiyoriy jamg'ariladigan tizimlar ulushi yuqori mamlakatlarga esa Buyuk Britaniya (56%) va AQShni (51%) misol qilish mumkin²¹. IHTT mamlakatlarida birdamlik tizimi bo'yicha to'lovlar miqdori yalpi ichki maxsulotga nisbatan o'rtacha 1%ni tashkil etadi. So'nggi vaqtlarda jamg'arib boriladigan pensiya tizimlarining ulushi ortib bormoqda.

1-bob bo'yicha xulosa:

– jamg'arib boriladigan pensiya pul mablag'larining maqsadli fondlarini shakllantirib, keksalik chog'ida foydalanish shakl va usullarini yig'indisini o'z ichiga olgan iqtisodiy-huquqiy munosabatlar tizimini aks ettiradi. Pensionerlarning farovonligini qo'shimcha ravishda oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining joriy etilishi fuqarolarning pensiyaga chiqishida ularni davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya qilinishiga va turmush farovonligining yanada yaxshilanishiga imkon beradi;

– davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalardan

²¹ Fayzullaev J.N., Qodirov A.S. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Frantsiya pensiya tizimiga ta'siri va uni bartaraf etishga qaratilgan islohotlar. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusidagi O'zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. – Toshkent, 2017-yil 15-noyabr. 87-88-b.

moliyalashtirilishi jamg'arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega.

- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlashdir. O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti ixtiyoriy va majburiy tartibda amalga oshiriladi;

- jamiyatdagi demografik o'zgarishlar pensiya tizimida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga chiqardi va uning echimi sifatida 1994-yilda Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi tomonidan jamg'ariladigan pensiya tizimi modeli ishlab chiqildi, XIX asr oxirida Boliviya, Chili, Salvador, Meksika va Qozog'iston jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tdi;


- xorij mamlakatlari tajribalari ko'rsatishicha, jamg'arib boriladigan pensiya tizimida davlat va xususiy pensiya fondlari hamda korporativ pensiya dasturlari muhim o'rin egallaydi va jamg'arib boriladigan pensiya jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va kelgusida fuqaroning moddiy ta'minotini ko'paytirishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TIZIMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

2.1. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larning shakllanish amaliyoti tahlili

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining manbasini fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga majburiy har oylik badallar tashkil qiladi. Bunda jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi)ning bir foizi hisobiga jamg'ariladigan pensiya mablag'lari shakllanadi. Ta'kidlash joizki, xodimlarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga har oylik badallar to'lash 2005-yilning yanvar oyi uchun hisoblangan ish haqi (daromad)dan boshlangan. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida pensiya jamg'armalarini fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mablag'lari hisobiga emas, balki davlat byudjetiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lardan ajratmalar hisobiga shakllantirish mexanizmi amal qilmoqda. Bunda, fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar jismoniy shaxslar daromad solig'ining byudjetga yo'naltiriladigan bir qismi hisobidan amalga oshiriladi.


Albatta, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini shakllantirish uchun, avvalo, ushbu tizimga a'zolikni ta'minlash kerak. A'zolik esa 2 xil tarzda bo'lishi mumkin: majburiy va ixtiyoriy. Mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda, biroq, yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etishlari mumkin (2.1-rasm).



2.1-rasm. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimidagi ishtiroki²²

Jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'ining tegishlicha kamaytirilgan summasi hisobiga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi har oyda to'lab boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni shakllantirish manbalarini quyidagicha tasvirlash mumkin:



2.2-rasm. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari²³

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari to'lash uchun foydalaniladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimidan 9256100 nafar fuqaro

²² O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya taminoti to'g'risida"gi Qonuni. 6-модда.

²³ O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya taminoti to'g'risida"gi Qonuni, 11-модда.

foydalangan²⁴. Qonun hujjatlarida belgilanganidek, Xalq banki fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimida qo'yilgan mablag'larni markazlashgan holda uzoq muddatli aktivlarga investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirib kelmoqda.

Bugungi kunda pensiya yoshiga etgan keksa yoshdagi fuqarolar har oyda olinadigan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda birdaniga yoki qisman olish yo'li bilan hisobvaraqlaridagi mablag'larni Xalq banki filiallaridan olishmoqda.

Xalq banki va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya tizimining samaradorligini ta'minlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Respublikaning barcha mintaqalaridagi Xalq banki bo'limlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning taqdimnomasi bo'yicha fuqarolar uchun yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlari ochildi, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya daftarchalari berilib, jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo'yishning elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Xalq banki bilan birgalikda ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlariga majburiy badallarni qo'shib to'lash tartibini amalga oshiradi. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlariga badallar o'z vaqtida va to'liq o'tkazilmaganligi uchun aybdor shaxslarga nisbatan soliqqa oid amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ta'sir choralari qo'llaniladi. Albatta, bunday choralar jamg'arib boriladigan pensiya tizimini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti daromadlari shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larning shakllantirilishi bilan izohlanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shu jumladan, ish beruvchilar tomonidan xodimlarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni to'lash tartibi "Ish beruvchilar tomonidan xodimlarning shaxsiy

²⁴ www.xb.uz.

jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallarni to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomaviy xati"²⁵ asosida amalga oshiriladi.

Barcha yuridik shaxslar – ish beruvchilar xodim uchun mazkur yuridik shaxs asosiy ish joyi hisoblanishi yoki u o'rindoshlik, soatbay haq to'lash, vaqtinchalik mehnat kelishuvi, bir martalik ishlarni bajarish va hokazo shartlarda ishlashidan qat'i nazar o'z xodimlarining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni o'tkazishlari shart. Yuridik shaxsni tashkil etmagan holda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar, yuridik shaxsni tashkil etmagan dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek, mehnat faoliyati bilan vaqtinchalik band bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Mehnat shartnomasi bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi va Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lashdan to'liq ozod qilingan fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etishga haqli. Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan (har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida soliq solinmaydigan) fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida umumiy asosda ishtirok etadi, ya'ni ish beruvchilar ushbu xodimlar ish haqining soliqqa solinadigan bazasidan 2 foizni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkazishi shart.

Qayd etish joizki, yuridik va jismoniy shaxslar – badal to'lovchilar amaldagi qonunchilikka muvofiq shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarning to'g'ri hisoblanishi, ushlab qolinishi va o'z vaqtida o'tkazilishi uchun javobgardir. Reestrda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ekt – majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchining rahbari javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy banki, Davlat soliq qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining qo'shma Qarori asosida 2005-yil 31-yanvarda tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqqa ega. Jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'ining tegishlicha kamaytirilgan summasi hisobiga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini ish beruvchi har oyda to'lab boradi.

Tizimda ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolar o'z shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlariga, shu jumladan, uchinchi shaxslar foydasiga kiritiladigan badallar miqdori va muddatlarini o'zlari mustaqil ravishda belgilaydilar. Shuningdek, Xalq banki shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlaridagi mablag'larga pul qadrsizlanishiga nisbatan yuqori sur'atlardagi stavkalar bo'yicha foizlarni hisoblab qo'shadi. Foiz daromadlari jamg'arib boriladigan pensiya tizimining mablag'larini joylashtirishdan olingan daromadlar hisobiga amalga oshiriladi.

Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlaridagi mablag'larga hisoblab chiqarilgan foizlar hamda bunday mablag'lar foydalanilishidan fuqarolar va Xalq banki oladigan boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari aylanmasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga tortilmaydi²⁶.

Ish beruvchilar fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlariga majburiy badallar byudjetga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash uchun belgilangan shakl va muddatlarda ajratadilar. Belgilangan tartibda naturada to'laydigan yoki mahsulot sotilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishidan olingan tushumdan to'lovni amalga oshiradigan ish beruvchi to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun mobaynida badallar summasini o'tkazishi shart.

Shuni alohida qayd etish joizki, ishga mavsumiy xodimlar qabul qilinayotganda mazkur mavsum davri uchun ular bilan muddatli mehnat shartnomasi tuziladi. Ya'ni, bunday shartnoma muayyan ishni bajarish vaqtiga

²⁶ O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 27-bob, 158-modda.

mo'ljallab tuziladi. Bunda ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi, mazkur buyruqni chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asos bo'ladi va unda xodimning lavozimi aniq ko'rsatiladi²⁷. Mehnat daftarchalari xodimlarning mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat bo'lib, u mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda mehnat shartnomasi bo'yicha 5 kundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga yuritiladi. Shundan kelib chiqib, korxonada 5 kundan ortiq ishlagan xodimga ish beruvchi mehnat daftarchasini yuritishi shart. Demak, bunday hollarda, ish beruvchi tomonidan xodimning ish haqi miqdorining 2 foizi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko'ra Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilingan²⁸. Shuningdek, jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari kiritilgan bo'lib, ular ham soliqlardan ozod qilingan, jamg'arib boriladigan pensiya mablag'lari jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari tarkibiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalari ham soliqlardan ozod etilgan. Soliq Kodeksiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi²⁹. Shuningdek, soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar tarkibiga jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining aylanmasi ham kiritilgan.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 75, 76, 77, 80, 81, 82-moddalari. Ushbu Kodeks 1996-yil 1-apreldan kuchga kirgan.

²⁸ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 158-modda. Ushbu Kodeksi 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.

²⁹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 179, 186, 209-moddalar.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini amalga oshiruvchi Xalq bankining so'nggi yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror sur'atlarni qayd etmoqda (2.1-jadval).

2.1-jadval

Xalq bankining asosiy ko'rsatkichlari³⁰

(mln. so'm)

№	Ko'rsatkichlar nomlanishi	01.01. 2015 y.	01.04. 2015 y.	01.07. 2015 y.	01.10. 2015 y.	01.12. 2015 y.	01.01. 2016 y.	01.01. 2017 y.
1.	Jami kapital	349470,3	395374,2	347102,1	421373,9	449315,8	454957,4	554900,6
2.	Kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar	746830,5	218715,3	489864,2	782070,0	955661,7	1006922,5	1315600,0
3.	Jalb qilingan depozitlar qoldig'i	2420738,2	2427702,3	2645357,8	2700412,1	2822136,4	2953763,2	3583800,0
3.1	shu jumladan, aholi omonatlari	1694565,5	1753344,5	1923709,1	1989181,6	2036886,9	2088409,6	2526700,0
4.	Filiallar soni	196	196	196	197	197	197	197
5.	Mini banklar soni	31	32	34	35	35	35	28
6.	Bankning boshqa muassasalari soni (jamg'arma, kommunal, maxsus va ko'chma kassalar)	1 331	1 332	1 325	1 291	1 299	1 287	1 251
7.	Muomilaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni (dona)	2164933	2379431	2571717	2696106	2746691	2896783	3479000
8.	Terminallar soni (dona)	22745	22864	23700	23815	23986	26074	26828

Jumladan, 2017-yil 1-yanvar holatiga Xalq bankining 197 ta filiali shuningdek, 28 ta mini-bank, 1070 ta jamg'arma, maxsus va kommunal kassalari va 181 ta xalqaro pul o'tkazmalari shoxobchalari aholi va mijozlarga xizmat ko'rsatmoqda. 2017-yil 1-yanvar holatiga bank kapitali 554,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilning 1 yanvariga nisbatan 100,0 mlrd. so'mga yoki 122,0 foizga o'sdi. 2017-yil 1-yanvar holatiga bankning depozit bazasi 3583,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, depozitlar 2016-yilning 1-yanvariga nisbatan 693,4 mlrd. so'mga yoki 24,0 foizga o'sdi. 2017-yilning 1-yanvar holatiga aholi omonatlari 2526,7 mlrd. so'm bo'lib, 2016-yilning 1-yanvariga nisbatan 438,4 mlrd. so'm yoki 21,0 foizga o'shdi. 2017-yilning 1-yanvar holatiga bankning kredit portfeli 2 352,3 mlrd. so'm

³⁰ <https://www.xb.uz>.

bo'lib, 2016 yilning 1 yanvariga nisbatan 469,1 mlrd. so'mga yoki 24,9 foizga o'sdi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining barqarorligi fuqarolarning daromad solig'i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqining bir foizi miqdorida yig'ilgan mablag'larning Xalq banki tomonidan taqsimlanishi va qayta taqsimlanishining tashkil etilishi risk darajasining nisbatan pastligi bilan baholanadi. 2017-yilning 1-yanvar holatiga fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,2 foizga o'sgan. Xalq bankidagi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larining daromadliligi mamlakatdagi rasmiy inflyatsiya darajasidan yuqoridir (2.2-javdal).

2.2-jadval

2007-2016-yillarda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larining daromadliligi, foiz hisobida

Ko'rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Inflyatsiya darajasi	6,8	7,8	7,4	7,3	7,4	7,0	6,8	6,1	5,6	5,7
Majburiy pensiya badallari	10,0	10,0	9,0	8,0	8,0	8,0	7,0	6,5	6,0	6,4
Ixtiyoriy pensiya badallari	10,0	10,0	9,0	8,0	24,0	24,0	24,0	20,0	10,0	12,2

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarori asosida jamg'ariladigan pensiya tizimini rivojlantirish va yanada kengaytirish tadbirlari belgilandi. Jumladan:

– fuqarolarning ixtiyoriy badallaridan jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga tushuvchi mablag'larni ko'paytirishni rag'batlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan: a) Xalq banki tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga ixtiyoriy asosda badallar


kirituvchi shaxslar uchun bank xizmatlarining jozibador turlarini joriy qilish (kreditlash, bank xizmatlarining jozibador tariflarini taqdim etish va h.k.); b) jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga mablag'larni uzoq muddatga joylashtirishning afzalliklari, qonunchilik bilan taqdim etilgan soliq imtiyozlari, joylashtirilgan mablag'larning daromadliligi va qaytarish kafolatlari to'g'risida aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish;

- tijorat banklari orqali jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari va yirik ishlab chiqarish infratuzilma obyektlarida amalga oshirilayotgan strategik jihatdan muhim investitsiya loyihalarini qo'shma moliyalashtirishni kengaytirish;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi resurs bazasini kengaytirish va joylashtirilayotgan mablag'lar portfelini diversifikatsiyalash maqsadida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini tijorat banklari va moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan yirik korxonalarning yuqori likvidli moliyaviy vositalariga (depozitlar, obligatsiyalar) yo'naltirish, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga mablag'larni kiritish jarayonini takomillashtirish maqsadida ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan elektron reestrlarni uzatish va qayta ishlash mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish.


O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining qo'shma Qarori asosida 2006-yil 7-oktyabrda tasdiqlangan "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida Xalq banki tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan, moliyaviy vositalarga joylashtirilmoqda. Bank tizimiga asoslangan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi fuqarolarning jamg'ariladigan pensiya mablag'larining saqlanishi va uning yanada ko'paytirilishini ta'minlab, bir vaqtning o'zida ushbu mablag'larning kredit sifatida berilishi ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar hajmini oshirishni rag'batlantirmoqda.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining daromadlilikini ta'minlash maqsadida qoldiq mablag'lari iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda:



2.3-rasm. 2017 йилда АТ “Халқ банкi”da jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larining tarmoq tarkibi³¹

Xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan berilayotgan prognozlarga ko'ra, mamlakatimizda pensiya yoshidagi aholining bog'liqlik koeffitsienti ortib boradi:



2.4-rasm. Pensiya yoshidagi aholining bog'liqlik koeffitsienti (65 va undan yuqori yoshdagilarning 15-64 yoshdagi ishchi kuchiga nisbati)³²

³¹ <https://www.xb.uz>.

³² Влияние единого социального платежа на занятость и финансовые показатели предприятий в Республики Узбекистан. Аналитическая записка. UNDP Uzbekistan. Ташкент – 2015. – С. 6.

Bu esa, o'z navbatida, milliy pensiya tizimida xususiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimi faoliyatini takomillashtirish orqali davlat pensiya fondi defitsitini oldini olish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Birlashgan millatlar tashkilotining xalqaro ekspertlari tomonidan tayyorlangan uzoq muddatli demografik prognoz natijalariga (2.3-jadval) asoslanib aytish mumkinki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida milliy pensiya tizimini moliyalashtirishning yangi manbalari va usullarini izlab topish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida inflyatsiyaga qarshi kurashish, jamg'ariladigan pensiya mablag'larini sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashga qaratilgan investitsiya siyosatiga muvofiq minimal risklar bilan jalb qilish imkoniyatlarini izlab topish nihoyatda muhimdir³³.

Bunda fuqarolarning jamg'arib boriladigan shaxsiy pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larning (istiqbolda pensionerlar farovonligini ta'minlash maqsadida) hajmi va qiymat jihatidan, shuningdek, inflyatsiya sharoitlarida ham likvidligini ta'minlash orqali bu mablag'larni iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiya jarayonlariga yo'naltirish ijobiy natijalarni beradi.

2.3-jadval

O'zbekistonda demografik holat bo'yicha BMTning 2005-2050 yillarga prognozi³⁴

Ko'rstatkichlar	2005 y.	2010 y.	2020 y.	2030 y.	2040 y.	2050 y.
Aholi, mln. kishi	26,6	28,6	32,5	35,3	37,4	38,6
Fertillik darajasi	2,74	2,27	1,94	1,85	1,85	1,85
Erkaklarning o'rtacha yoshi	64	65,1	67,6	69,7	71,4	72,1
Ayollarning o'rtacha yoshi	70,4	71,5	73,8	75,6	77,1	77,7
60 yoshdan o'tgan aholi qatlami, aholining umumiy soniga nisbatan, foizda	6,2	6,2	8,7	12,3	15,8	21,1

Mamlakatimizda joriy demografik vaziyatlarni inobatga olgan holda, keyingi yillarda milliy pensiya tizimida jamg'arib boriladigan pensiya dasturini

³³ Shoha'zamiy Sh.Sh. Pensiya ta'minoti tizimi investitsion modelining qiymatli antiinflyatsion kontseptsiyasi. "Moliyachi ma'lumotnomasi" jurnali, 9-son, 2015. 35-36-b.

³⁴ "Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi 2014-yil 21-noyabrdagi Toshkent shahri O'zbekiston Milliy universitetida bo'lib o'tgan respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari asosisida tuzilgan. 6-8-b.

rivojlantirish va uning faoliyatini takomillashtirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- taqsimlanadigan va jamg'arib boriladigan pensiya dasturlarini o'zaro uyg'unlashtirish;
- fuqarolarning pensiya sug'urtasi badalini to'lab borishi uzviyligi va maqsadli tarzda amalga oshirilishini ta'minlash;
- davlat pensiya tizimida jamg'arilib boriladigan pensiya dasturi ahamiyatini uni turli shakllar asosida tashkil etish orqali oshirib borish;
- ish beruvchilar tomonidan kasbiy pensiya dasturlarini tashkil etilishini rag'batlantirish;
- xususiy pensiya fondlari faoliyatini tashkil etish va ularni investitsion faolligini oshirish;
- xususiy pensiya fondlarida sug'urtalangan fuqarolar uchun soliq imtiyozlarini joriy etish.


2.2. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larning sarflanishi va investitsiya maqsadlarida foydalanish amaliyoti tahlili

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari to'lash uchun foydalaniladi va jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog'liq bo'lmagan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish mumkin emas. Xalq banki jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining alohida hisobini yuritadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini ko'paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek, moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya badallari shaklida tushgan pul mablag'lari keyinchalik fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkazish uchun Xalq banki filiali tomonidan maxsus tranzit hisobvarag'iga o'tkaziladi. Xalq banki filiali jamg'arib boriladigan pensiya badallari tushgan kundan keyingi ish kunidan kechikmay mablag'larni hosil bo'lgan majburiyatlar miqdorida Xalq bankining markaziy operatsiya filialiga o'tkazadi. Filiallardan olingan mablag'lar Xalq bankining markaziy operatsiya filiali tomonidan belgilangan tartibda joylashtiriladi.



**2.5-rasm. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti
xarajatlarning tarkibi va tuzilishi³⁵**

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006-yil 7-oktyabrdagi 88-sonli va 282-V sonli qarori bilan tasdiqlangan "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida shakllantirildi.

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti xarajatlari ikki qismga bo'linadi. Birinchisi, fuqarolarga qonunchilikka ko'ra pensiya yoshiga etganlarida ular uchun ochilgan Xalq bankidagi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag'larning to'lanishi bo'lsa, ikkinchisi, Xalq banki tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan, moliyaviy vositalarga yo'naltirilishidir.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish uchun fuqarolar "Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag'larni to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida tasdiqlangan shakl bo'yicha Guvohnoma berish to'g'risidagi ariza bilan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining yashash joyidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limiga murojaat qiladilar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining qatnashchisi bo'lgan xodim tomonidan vakil qilingan ish beruvchining mansabdor shaxsi ariza beruvchi bo'lishi mumkin. Bu holda ariza jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining yashash joyidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limiga beriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi to'g'risidagi guvohnomani berish so'ralgan ariza davlat pensiyasi olish huquqi yuzaga kelgandan keyin, biron-bir muddat bilan cheklanmagan holda, istalgan vaqtda berilishi mumkin. Arizaga jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi, shuningdek fuqaroning yoshi, nogironligi yoki Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan belgilanadigan ro'yxatga muvofiq boquvchisini yo'qotganligi tufayli davlat pensiyasi olishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Agar jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish to'g'risidagi murojaat yoshi yoki nogironligi bo'yicha davlat pensiyasi tayinlangandan keyin tushgan taqdirda

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limlari tomonidan beriladigan belgilangan shakldagi pensiya guvohnomasi ilova qilinadi va boshqa hujjatlar talab qilinmaydi. Ariza byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limi tomonidan ro’yxatdan o’tkaziladi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limi tomonidan ariza va ilova qilinayotgan hujjatlar qabul qilib olinishida arizada ko’rsatilgan ma’lumotlarning to’liqligi va ishonchliligi tekshiriladi. Tuman (shahar) O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limiga fuqaroning yoshi, nogironligi bo’yicha yoki boquvchisini yo’qotganligi tufayli davlat pensiyasi olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning to’liq to’plami taqdim etilgan kun ariza ro’yxatdan o’tkazilgan sana hisoblanadi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limi ariza olingan va ro’yxatdan o’tkazilgan sanadan boshlab uch ish kuni mobaynida tegishli shakl bo’yicha jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlarini olish huquqi to’g’risida guvohnomani beradi.

Nogironligi bo’yicha yoki boquvchisini yo’qotganlik uchun pensiya tayinlashda jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlari olish huquqi to’g’risidagi guvohnomada to’lovlarning boshlanish va tugash muddatlari ko’rsatiladi.


Jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlarini oluvchida fuqaroning yoshi, nogironligi bo’yicha yoki boquvchisini yo’qotganligi tufayli davlat pensiyasini olish huquqi yo’qligi munosabati bilan guvohnoma berish rad etilgan taqdirda, byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limi ariza olingan kundan boshlab uch kun muddatda ariza beruvchiga rad etish sabablari va shikoyat qilish tartibi ko’rsatilgan holda rad etish to’g’risidagi xabarnomani yuboradi (beradi).

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limi jamg’arib boriladigan pensiya to’lovlarini oluvchilarga guvohnomani ularning arizasi asosida shaxsan beradi, guvohnoma oluvchilarning yashash joyi o’zgarganda ham amal qiladi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga binoan, ishlovchi fuqarolarning ish haqlaridan daromad solig’i, Pensiya jamg’armasiga sug’urta badali undiriladi.

Bundan tashqari ish haqidan kasaba uyushmasiga 1%li ajratma ham undiriladi. Ishlovchi xodim ish haqining daromad solig'i undiriladigan qismidan bir foizli ajratma shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga olib qolinadi, amaldagi qonunchilikka ko'ra mazkur summa fuqaroning to'lashi lozim bo'lgan daromad solig'idan chegirib qolinib, xodimning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamiga o'tkaziladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini samarali joylashtirishni tashkil etish maqsadida Moliya vazirligi, Markaziy bank va Xalq bankining vakillaridan iborat bo'lgan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat (2.6-rasm).




2.6-rasm. Muvofiqlashtiruvchi Kengash vazifalari

Muvofiqlashtiruvchi Kengashning ishchi organi O'zbekiston Respublikasi Xalq banki hisoblanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan tasdiqlanadigan kvotalarga

muvofig Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini obyektlari bo'yicha joylashtirish kvotalari har chorakda Muvofiqlashtiruvchi Kengash qarorlari bilan tasdiqlanadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari sud jarayonidan oldingi sanatsiya choralari ko'rilayotgan yoki O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 5-maydagi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun hujjatlariga asosan bankrotlik jarayoni qo'zg'atilgan (kuzatish, vaqtincha (tashqi) boshqarish) yoki oxirgi ikki yil mobaynida ushbu jarayonlar qo'llanilgan emitentlarning qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish uchun ishlatilishi mumkin emas. Shuningdek, likvidlilik, to'lovlilik, daromadlilik va boshqa qo'yilgan talablarga javob bermaydigan qimmatli qog'ozlar emitentlariga jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'laridan joylashtirilish uchun foydalanish mumkin emas. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirishdan olingan daromad, Xalq banki oladigan marja summasi chegirib tashlangandan so'ng, har yili yil yakunida fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga, ulardagi mavjud bo'lgan qoldiq miqdoriga mutanosib ravishda o'tkaziladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini boshqarish Xalq banki tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini boshqarish departamenti tomonidan amalga oshiriladi (2.7-rasm).



2.7-rasm. Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimini boshqarish departamentining tarkibiy tuzilishi³⁶

³⁶ <https://www.xb.uz>.

Halq bankidagi jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini boshqarish departamentining zimmasiga bir qator vazifa va funktsiyalar yuklatilgan.

Quyida biz bir xodimning ish haqlari va undan undiriladigan soliqlar va majburiy to'lovlarning miqdorlarini nazariy jihatdan ko'rib chiqamiz.

2.4-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari

Soliqqa tortiladigan ish haqi pog'onolari	Stavkasi, foizda
Eng kam oylik ish haqining 1 barobarigacha bo'lgan qismidan	0
Eng kam oylik ish haqining 1 barobaridan 5 barobarigacha qismidan	7,5
Eng kam oylik ish haqining 5 barobaridan 10 barobarigacha qismidan	16,5
Eng kam oylik ish haqining 10 barobaridan oshgan qismidan	22,5

Eng kam ish haqi, soliqlar va majburiy to'lovlar stavkalarini 2018-yildagi byudjet-soliq siyosatining asosiy ko'rsatkichlarida belgilangan me'yor va stavkalarida deb belgilab olamiz. Xususan, 2018-yilning boshida eng kam ish haqi 172240 so'mni tashkil etgan bo'lib, daromad solig'i stavkalari quyidagicha bo'lgan³⁷:

Daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdori sifatida yil boshidagi miqdor inobatga olingan hamda yil oxirigacha shu miqdordan soliq miqdori hisoblab chiqariladi. Soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash ortib boruvchi yakun usuli orqali amalga oshiriladi. Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badali stavkasi 2018-yil uchun hisoblangan ish haqiga nisbatan 8% qilib belgilangan.

Quyidagi 2.5-jadvalda abstrakt ravishda bir xodimning hisoblangan ish haqi, undan olinadigan ushlanmalar nazariy jihatdan hisoblab chiqarilgan, hisoblangan ish haqi miqdori sifatida esa O'zbekistondagi o'rtacha ish haqiga yaqin miqdor sifatida 1500000 million so'm deb olingan.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli Qarori.

2.5-jadval

2017 yilda jismoniy shaxslarning ish haqidan ushlanmalar hisob-kitobi³⁸

Oylar	Hisoblangan ish haqi	Ushlanmalar, so'mda				Qo'lga tegadigan ish haqi
		Byudjetga daromad solig'i	Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali	Kasaba uyushmasiga a'zolik badali	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga majburiy ajratma (2 %)	
yanvar	1500000	130518,8	120000	15000	26555,2	1207926
fevral	1500000	130518,8	120000	15000	26555,2	1207926
mart	1500000	130518,8	120000	15000	26555,2	1207926
aprel	1500000	130518,8	120000	15000	26555,2	1207926
may	1500000	130518,8	120000	15000	26555,2	1207926
iyun	1500000	130518,8	120000	15000	26555,2	1207926
iyul	1500000	130518,8	120000	15000	26555,2	1207926
avgust	1500000	130518,8	120000	15000	26555,2	1207926
sentabr	1500000	130518,8	120000	15000	26555,2	1207926
oktabr	1725000	163299,8	138000	17250	31055,2	1375395
noyabr	1725000	163299,8	138000	17250	31055,2	1375395
dekabr	1725000	163299,8	138000	17250	31055,2	1375395
Jami	18675000	1664568,6	1494000	186750	332162,4	14997519

Jadvaldagi hisob-kitoblardan ko'rinadiki, 2018-yilda xodimning umumiy hisoblangan ish haqi 18675000 so'm bo'lgani holda, byudjetga to'lanadigan soliq 1664568,6 so'm, Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali 1494000 so'm, jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga ajratma miqdori 332162,4 so'mni, xodimning sof qo'lga tegadigan ish haqi esa 2018-yilda 14997519 so'mni tashkil etar ekan.

Yuqoridagi jami miqdordan quyidagi ulushli jadvalni hosil qilamiz:

2.6-jadval

Jismoniy shaxslar ish haqidan ushlanmalarning hisoblangan ish haqiga nisbati³⁹

Ko'rsatkichlar	2018-yilda jami	Foiz hisobida
Hisoblangan ish haqi	18675000	100
Shu jumladan:		
Byudjetga daromad solig'i	1664568,6	8,9
Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali	1494000	8
Kasaba uyushmasiga a'zolik badali	186750	1
Jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga ajratma	332162,4	1,8
Qo'lga tegadigan ish haqi	14997519	80,3

³⁸ Magistrant hisob-kitobi.

³⁹ Magistrant hisob-kitobi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- jismoniy shaxslarning ish haqining taxminan 19-20 foizi soliq va boshqa majburiy to'lovlar ko'rinishida ushlab qolinadi;

- shuni alohida ta'kidlash kerakki, jismoniy shaxslarning ish haqi miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, ushlanma foizi ham shuncha katta bo'ladi va aksincha. Shuningdek, yuqori ajratma qilgan fuqarolar yuqori pensiya olish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

- bordi-yu jismoniy shaxslar ish haqlarini o'zgarmas va inflyatsiya darajasini 0 ga teng deb oladigan bo'lsak, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimiga jismoniy shaxslarning majburiy ajratmalaridan 25 yillik davrda foizli daromadlarsiz 8304060 so'm mablag' yig'iladi;

- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti qonunchiligiga binoan, tizimga jismoniy shaxslarning ish haqidan ixtiyoriy o'tkaziladigan daromadlar daromad solig'iga tortilmaydi va yuqori foizli daromadlilik asosida kapitalizatsiya qilinadi. Ishlovchi fuqarolar mana shu omillar hisobiga pensiya davrida o'zlarining ijtimoiy ta'minotlari uchun katta miqdorda daromad jamg'arish imkoniga ega bo'ladilar;

- belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan, byudjetga to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlaridan "0" stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad (eng kam ish haqining bir baravari) chegirilgan holda 2 foiz miqdorida hisoblab chiqariladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

2.3. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida nazorat va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlili

Nazorat jamiyat iqtisodiy hayotidagi obyektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo'g'inidir. Davlat moliyasini va iqtisodiy faoliyatni

boshqarishda nazorat tizimi – bu erishilgan natijalarning qabul qilingan boshqaruv qarorlariga mosligi darajasini belgilash hamda qo'yilgan maqsadni ishlarning haqiqiy ahvoriga taqqoslash asosida nazorat obyektining holatini baholash, tartibga solish tadbirlari va tuzatish ta'sirlarini ishlab chiqish jarayonida nazorat sub'ektlari, obyektlari va vositalarining majmuidir.

Moliyaviy tizimni boshqarishning muhim vositalaridan biri – bu moliyaviy nazoratdir. Moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga obyektiv xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo'nalishda (aspektda) qaraladi: barcha iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qattiq reglamentatsiya qilingan (tartibga solingan) faoliyati; moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida makro va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi.

Bozor iqtisodiyotida davlat moliyaviy nazorati alohida bir soha sifatida davlat moliyaviy resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishi, davlat mulkidan oqilona foydalanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Barcha iqtisodiy sub'ektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek, maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi⁴⁰. Bu nazorat, eng avvalo, pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunchilikka rioya etilishi, moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy nazoratning obyekti pul munosabatlari hisoblanadi. Moliyaviy nazoratning predmeti quyidagi moliyaviy ko'rsatkichlardan iborat: turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari; soliq to'lovlarining hajmlari (miqdorlari, o'lchamlari); xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning daromadlari; xo'jalik yurituvchi

⁴⁰ Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. 105-b.

sub'ektlarning muomala xarajatlari; tannarx va foyda; uy xo'jaliklarining daromadlari va xarajatlari; va boshqalar.

Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda boshqaruv konkret organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo'naltirilgan tizimidir. Davlat moliyaviy nazorati davlatning moliya siyosatini amalga oshirishga va moliyaviy barqarorlik uchun sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu narsa, eng avvalo, barcha darajalardagi byudjetlar va nobyudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, korxona va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni anglatadi⁴¹. O'z navbatida, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti ham nazorat obyekti hisoblanadi.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish hamda ularni yuritish tartibiga rioya etilishi, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarilishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi organlari, davlat soliq xizmati organlari va Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan belgilangan maqsadda foydalanilishi hamda foizlar to'g'ri hisoblab chiqarilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan, shuningdek Xalq bankining shu maqsad uchun maxsus tashkil etilgan bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarining to'g'riligini nazorat qilish Moliya vazirligining nazorat-taftish organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

⁴¹ Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. 108-b.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ish beruvchi xodimga berilgan jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi rekvizitlarining xodimning shaxsini tasdiqlaydigan hujjat rekvizitlariga muvofiqligini nazorat qilishga majburdir.

Xalq banki jamg'arib boriladigan pensiya badallarini to'lovchilar tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga taqdim etilishining to'g'riligini, shu jumladan ularning hisobga olish ma'lumotlarining to'g'riligi taqdim etilishi ustidan nazorat qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuridik shaxslar tomonidan majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'g'riligi, to'liq hisoblanishi va o'z vaqtida o'tkazilishi hamda fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo'shilishi ustidan nazorat o'rnatish vazifasi yuklangan.

Moliyaviy nazorat o'tkazilish vaqti bo'yicha quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi:

- dastlabki;
- joriy (operativ);
- so'nggi (kelgusi).

Dastlabki nazorat moliyaviy operatsiyalarning sodir bo'lishidan oldin amalga oshiriladi va moliyaviy xatoliklarning (buzilmalarning) oldini olish yoki ularni ogohlantirishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag'larning maqsadsiz va samarasiz sarflanishining oldini olish uchun xarajatlarning moliyaviy jihatdan asoslangan bo'lishini ko'zda tutadi. Makrodarajada bunday nazoratga misol sifatida mamlakat iqtisodiy tarqqiyotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bashoratlari asosida barcha darajadagi byudjetlarni va nobyudjet fondlarining moliyaviy rejalarini tuzish va tasdiqlash jarayonini ko'rsatish mumkin. Mikrodarajada esa ular moliyaviy rejalar va smetalar, kredit va kassa arizalari, biznes-rejalarning moliyaviy bo'limlari, bashorat balanslarini tuzish, hamkorlikdagi faoliyat to'g'risida shartnoma va h.k.lardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy (operativ) nazorat pul bitimlari, moliyaviy operatsiyalar, ssuda va subsidiyalarni berish va h.k.larning sodir bo'lish vaqtida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag'larni olish va ularni sarflash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklardan ogohlantiradi, moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga va pul hisob-kitoblarining o'z vaqtida amalga oshirilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu erda buxgalteriya xizmatlari katta rol o'ynaydi.

So'nggi moliyaviy hisobot va buxgalteriya hujjatlarini tahlil va taftish qilish yo'li bilan amalga oshirilib, uning bu shakli iqtisodiy sub'ektlar moliyaviy faoliyatining natijalarini, taklif etilgan moliyaviy strategiya amalga oshirilganligining samaradorligini, moliyaviy xarajatlarni ularning prognozlari bilan qiyoslanishini va h.k.larni baholashga mo'ljallangan.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi nazoratining oldida turgan eng asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlash, pul fondlarining o'lchami va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi mutanosiblikka (balanslilikka) ta'sir ko'rsatish;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimining fuqarolar oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy ishtirok etuvchilar uchun rag'batlantirishning ta'sirchan choralarini ko'rish;
- va boshqalar.

Bunda nazoratni amalga oshirish jarayonida uning quyidagi metodlaridan foydalaniladi: tekshiruv; tadqiq etish; nadzor (nazorat); moliyaviy holat tahlili; kuzatish (monitoring); taftish.

Tekshiruv hisobot, balans va xarajat hujjatlari asosida moliyaviy-xo'jalik faoliyatning alohida masalalari bo'yicha amalga oshiriladi. Tekshiruv jarayonida moliyaviy intizomning buzilganligi aniqlanadi va ularni barham berish borasida choralar belgilanadi. Tadqiq etish jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ayrim

tomonlarini qamrab oladi. Shuningdek, tadqiq etish so'rash, kuzatish va inspeksiya qilish hollari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Nazorat jamg'arib boriladigan pensiya tizimining nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratni anglatadi. U o'rnatilgan (belgilangan) qoidalar va normativlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy tahlil jamg'arib boriladigan pensiya tizimi nazoratini amalga oshirish metodi sifatida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining natijalari, moliyaviy holatning ahvoliga umumiy baho berish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslash maqsadida davriy yoki yillik moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini detallashtirilgan tarzda o'rganishni ko'zda tutadi.

Taftish jamg'arib boriladigan pensiya tizimi faoliyatidagi nazoratning ancha keng tarqalgan metodi sanalib, nazoratning haqiqiy va hujjatli usullarini qo'llash yordamida amalga oshiriladigan kompleks tekshiruvdan iboratdir. Taftish taftish qilinayotgan obyekt faoliyatidagi kamchiliklar va buzilmalarni topish uchun, ya'ni sodir etilgan moliyaviy operatsiyalarining maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, iqtisodiy samaradorligini, moliyaviy intizomga rioya etilganligini, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining ishonchliligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Respublikamizda fuqarolarga davlat pensiyasini o'z vaqtida to'lash bilan birga jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tartibini nazorat qilish va hisobraqamdagi mablag'larni samarali boshqarishni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim masala sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 110-sonli Qarorining 3-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuridik shaxslar tomonidan majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'g'riligi, to'liq hisoblanishi va o'z vaqtida o'tkazilishi hamda fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo'shilishi ustidan nazorat o'rnatish vazifasi yuklatildi hamda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya

hisobvaraqlariga badallar o'z vaqtida va to'liq o'tkazilmaganligi uchun aybdor shaxslarga nisbatan soliqqa oid amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ta'sir choralari qo'llaniladigan bo'ldi.

Ilgari shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga majburiy jamg'arib boriladigan badallar o'z vaqtida o'tkazilmaganligi uchun javobgarlik ushbu qonun hujjatida aks ettirilmagan bo'lsa, endi Xalq bankida "Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni kiritish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga majburiy jamg'arib boriladigan badallar o'z vaqtida o'tkazilmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadiga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda penya undiriladi. Ya'ni, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish to'lovning belgilangan muddatidan keyingi kundan e'tiboran muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun, to'lov kuni ham shunga kiradi, 0,033 foiz miqdorida penya hisoblashga sabab bo'ladi⁴².

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 188-moddasiga muvofiq, to'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi byudjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi: pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda. Ish haqi bo'yicha oyning birinchi yarmi uchun bo'nak (avans) olish uchun hujjatlar taqdim etilganda soliqni to'lash amalga oshirilmaydi; to'lov natura holidagi amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa. Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag'ida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani soliqni byudjetga o'tkazish uchun mablag'lar etarli bo'lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bank hisobvarag'idagi qoldiq mablag'larga mutanosib summada byudjetga o'tkaziladi⁴³.

⁴² O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, 120-modda.

⁴³ "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaga. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012 yil 15 martda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2342.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida nazorat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnik ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 110-sonli qarorida ham ko'zda tutilgan. Jumladan, yuridik shaxslar tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya majburiy badallarining to'g'ri, to'liq hisoblanishi va o'z vaqtida o'tkazib berilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. 2018 yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 2.7-jadvalda keltirilgan.

2.7-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari⁴⁴

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdorda	daromad summasining 0 foizi
eng kam ish haqining bir baravaridan (+1 so'm) besh baravarigacha miqdorda	eng kam ish haqi miqdorining bir baravaridan oshadigan summaning 7,5 foizi
eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summaning 16,5 foizi
eng kam ish haqining o'n baravaridan oshgan qismidan	o'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summaning 22,5 foizi

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlar guruhlari bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga – 2018-yil 1-yanvarga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga karab, qayta ko'rib chiqilmaydi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqining summasi). Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan, byudjetga to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli Qarori.

o'tkaziladigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlaridan 2% miqdorida hisoblab chiqariladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Umuman olganda, jamg'arib boriladigan pensiya mablag'lari faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ham egadir, chunki ular aholining hamma qatlamlariga daxldor va mehnat resurslarining bo'lajak sifatini shakllantiradi. Shuning uchun insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratib berilishi ijtimoiy islohotlarning bosh maqsadidir. Bu jarayonni amalga oshirishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va nazorat qilish hamda uning mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega.

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda, shuningdek, O'zbekistonda ham ijtimoiy ta'minot tizimining asosiy manbai bo'lib pensiya ta'minoti tizimi hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimizning salmoqli qismini ijtimoiy himoya ostidagi aholi tashkil etadi, shunga muvofiq tarzda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining yuqori ulushi ham aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlariga sarflanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida moliyaviy nazoratni to'g'ri tashkil etish, o'z vaqtida monitoring olib borish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar qonuniy-huquqiy normativlar asosida mustahkamlanib borilayotgani maqsadga muvofiqdir.

2-bob bo'yicha xulosa:

– shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallaridan, jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallaridan, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag'lariga hisoblab chiqarilgan foizlardan hamda qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa mablag'lardan iborat;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari to'lash, mablag'larini ko'paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag'lardan investitsiya va

kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin;

– fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larining saqlanishi va to'lanishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida to'plangan mablag'larga daromad hisoblash foizi inflyatsiya darajasida yuqori bo'lishi lozimligi ko'rsatilgan. O'zbekiston 2016 yilda inflyatsiya darajasi yillik 5,7 foizni tashkil qildi va bu ko'rsatkichning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga salbiy ta'siri mavjud emas. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisoblarida to'plangan pul mablag'lari faqat ana shu hisob egalari bo'lgan fuqarolarga tegishlidir. Ularning o'zlari, ishonch bildirgan boshqa shaxslar yoki merosxo'rlardan boshqa hech kim pul mablag'ini olish huquqiga ega emas. Fuqarolar shaxsiy jamg'arma pensiya mablag'larini olishlari davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo'lingan paytdan boshlab bir vaqtda yoki oyma-oy teng ulushlarda olishlari mumkin, uning shakli oluvchi tomonidan belgilanadi. Hisobvaraq egasi vafot etgan holda unda to'plangan badallar qonunda belgilangan tartibda merosxo'rga o'tadi;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimi nazoratining oldida turgan eng asosiy vazifalar pensiya mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlash, tizimning fuqarolar oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash hamda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy ishtirok etuvchilar uchun rag'batlantirishning ta'sirchan choralarini ko'rishdan iborat.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi o'ziga xos muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi o'ziga xos muammolardan biri shuki, avvalo, ushbu tizimda moliyaviy risk darajasi yuqori bo'ladi, ayniqsa, nobarqaror iqtisodiyot (inqiroz) sharoitida bu nihoyatda jiddiy masala hisoblanadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga inflyatsiya ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamg'ariladigan pensiya mablag'larini jamg'arish jarayonidagi asosiy jihat – bu ularni investitsiyalashdir. Bunda mablag'lar butligini ta'minlashning va uni yanada ko'raytirish yo'llaridan biri – bu investitsiyalash uchun samarali moliyaviy vositalarni tanlash, diversifikatsiyalash kafolatlari, moliyaviy risklarga ortiqcha kontsentratsiyasiga yo'l qo'ymaslikdir. Ta'kidlash joizki, investitsiyalash jarayonini tashkil qilishda investitsion infratuzilma, mablag'lar butligi va daromadliligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu erda ikki o'zaro qarama-qarshi vazifalar vujudga keladi: bir tomondan qo'yilmalarning daromadliligini ta'minlash, ikkinchi tomondan – risklarni kamaytirish. Shuning uchun bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun jahon amaliyotida quyidagi tamoyillar qo'llaniladi: risklarni sug'urtalash; investitsion portfelni diversifikatsiyalash; riskni limitlash⁴⁵.

Muammoli jihatlardan yana biri jamg'ariladigan pensiya mablag'larini joylashtirishda mumkin bo'lgan investitsiyalash obyektlarini tanlash va moliya bozorlarining tegishli sohalarining tayyorligini aniqlashdir. Odatda, davlat tomonidan chiqarilgan va kafolatlangan qimmatli qog'ozlar kamroq riskli sifatida qaraladi. Daromadlilik nuqtai nazaridan obligatsiyalar qulay hisoblanadi. Bu,

⁴⁵ Nosirov E. va boshq. Investitsiya risklarini boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2012. 116-b.

asosan, jamg'ariladigan pensiya mablag'larini butligining qo'shimcha kafolati sifatida dastlabki bosqichlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamg'ariladigan pensiya mablag'larining real mol-mulk bilan ta'minlangan bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun jamg'ariladigan pensiya mablag'lari YaIMni oshirishga yo'naltirilishi va iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalanishi lozim. Bu mamlakat iqtisodiyotida xususiy investitsion resurslar kamomadini muayyan darajada bartaraf etish imkonini beradi. Ushbu holatda investitsion portfelning asosi korporativ qimmatli qog'ozlar bo'lishi lozim. Aktsiyalar, mohiyatan kompaniya kapitalidagi ulush hisoblanib, uning qiymati kompaniya kapitalining ortishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi sababli, nisbatan yuqoriroq daromadlilikni ta'minlashi mumkin. Aktsiyalarga uzoq muddatli qo'yilmalarni inobatga olgan holda, ular bo'yicha daromadlilik davlat qimmatli qog'ozlariga qo'yilmalarga nisbatan bir muncha yuqori bo'lishi mumkin. Shu bilan birga pensiya jamg'armalari mablag'larini aktsiyalarga investitsiyalash ishlovchilarga daromadlarda ishtirok etish va oxir oqibatda yuqoriroq pensiyani ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini o'rganish davomida o'z echimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Qonunning 13-moddasida ish beruvchi tomonidan majburiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlarini ochish, ularni yuritish tartibiga rioya qilish, badallarni to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni moliya, davlat soliq xizmati organlari va Xalq banki tomonidan amalga oshirilishi belgilangan bo'lsada, ushbu organlar orasida o'zaro hamkorlikni lozim darajada yo'lga qo'yish zarur. Davlat soliq organlari tomonidan ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan talab qonun ijrosi ustidan nazorat etarli darajada tashkil etilishi zarur. Xalq bankining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlari holati to'g'risida fuqarolarni har yili xabardor qilib borish majburiyati belgilangan bo'lib, bu borada ishtirokchilarga xabar berish sust tashkil etilgan. Shu bilan birga, joylarda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining faoliyat ko'rsatishi masalasi yuzasidan xo'jalik yurituvchi

sub'ektlar rahbarlari va buxgalterlari bilan tizimli ravishda ilmiy-amaliy seminarlar o'tkazishga, jamg'ariladigan pensiya tizimiga oid qonun hujjatlarining mazmunini aholiga tushuntirishga etarli darajada e'tibor qaratilishi kerak. Aholining bankka ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlarining yillik harakati to'g'risidagi xabarnomalarni elektron tizimlar orqali ma'lumotlar berilishini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar hal etilishi kerak.

Yana bir muammo. Chili pensiya tizimidagi asosiy muammo mehnat bozorining xususiyatlari bilan bog'liq. Aksariyat mehnatga layoqatli aholi (ayniqsa ayollar va yoshlar) ishsiz yoki norasmiy sektorda band. Ish o'rinlarining tez-tez o'zgarib turishi ham jamg'armalarni muntazam jamg'arib borish imkonini pasaytiradi, o'zini-o'zi band etuvchi aholini pensiya jamg'armalarini jamg'arishga undash yanada murakkab muammoga hisoblanadi⁴⁶.

Mamlakatimizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'lari muddatiga ko'ra, "uzun" moliyaviy resurslar sifatida qaraladi. Chunki, ushbu mablag'lar fuqaro pensiya chiqqunga qadar investitsiyalarga jalb etilishi mumkin. Hozirda jamg'armani shakllantirishda ixtiyoriy badallar ulushi jiddiy salmoqqa ega emas, shu jihatdan ushbu tizimni yanada takomillashtirish va nodavlat pensiya jamg'armalari bilan shug'ullanuvchi moliyaviy tashkilotlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jamg'ariladigan pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni bandlik, mehnat bozori, aholi daromadlari, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, soliq, moliya va kredit sohasidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim.

Tahlillar, O'zbekiston jamg'arib boriladigan pensiya tizimi samaradorligining pasayishiga olib keluvchi quyidagi omillar mavjudligini ko'rsatmoqda: a) jamg'arib boriladigan pensiya tizimi daromadliligining inflyatsiya darajasidan pastligi; b) mablag'larni joylashtirishda muqobil

⁴⁶ Mamanazarov M.A., G'aniev A.Yo. Jamg'ariladigan pensiya tizimining afzalliklari va kamchiliklari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusidagi O'zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. – Toshkent, 2017-yil 15-noyabr. 76-77-b.

manbalarining mavjud emasligi; v) individual pensiya jamg'armalari hisob-raqamlaridan mablag'larni muddatidan oldin olishning mumkin emasligi; g) Xalq bankining jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga ko'rsatadigan xizmatlari bilan bog'liq xarajatlarining yuqoriligi.

Uzoq muddatli istiqbolda (10-15 yil) pensiya tizimida quyidagi omillar natijasida og'irlikning o'sishi kuzatiladi: a) norasmiy sektorlarda band bo'lgan hamda mehnat migrantlari hisoblangan hozirgi kundagi 40 yoshli ishchilar avlodining ommaviy pensiyaga chiqishi. Ushbu kategoriyalar pensiya badalini to'lamayotgan bo'lsalarda, belgilangan pensiya yoshiga etganlaridan so'ng (kichik miqdorda bo'lsa ham) pensiya olishga da'vo qiladilar; b) 2050-yilga borib mehnatga layoqatli yoshdan yuqori aholi qismining asta-sekin 12-15 foizgacha ko'payib borishi.


Amaldagi pensiya ta'minoti modeliga taalluqli moliyaviy potentsialning tushishi sharoitida soni o'sib borayotgan pensionerlar uchun munosib turmush sifatini ta'minlash zarurati pensiya ta'minoti sohasida asosiy uzoq muddatli istiqboldagi undov bo'lib rol o'ynaydi.

Moliviylar tanqislikning oldini olish, busiz ham yuqori bo'lgan pensiya badali miqdorining o'sishi, pensiya ta'minotiga oid imtiyozlarni qisqartirish yohud pensiya yoshini ko'tarish kabi an'anaviy chora-tadbirlarni ko'zda tutadi. Sanab o'tilgan barcha holatlar salbiy natijalarga olib kelishi mumkin: a) mahsulot tannarxining ko'tarilib ketishi va iqtisodiyotda raqobatbardoshlikning kuchsizlanishi; b) korxonalarning xufyona tarzda faoliyat olib borishining keskinlashishi; v) aholining pensiya ta'minoti tizimi haqqoniyligiga bo'lgan ishonchsizligining o'sishi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimidagi mavjud va kutilishi mumkin bo'lgan muammolar hal etilishida yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar inobatga olinishi zarur.

Ma'lumki, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga mablag'larining investitsiya qilinishi risk bog'liq muammo hisoblanadi. Shuning uchun jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini

investitsion yo'nalishida foydalanishda mavjud bo'lgan risklarni kamaytirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim (3.1-rasm).



3.1-rasm. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsion yo'nalishida foydalanishda mavjud bo'lgan risklarni kamaytirishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar⁴⁷

Shuni alohida qayd etish lozimki, pensiya tizimini takomillashtirish mehnatga haq to'lash, soliq tizimi, mehnat bozorining holati va moliya bozori bilan uzviy bog'liq muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni mamlakatdagi demografik vaziyat, ishsizlik, mamlakat aholisining tabiiy o'sishi va umr ko'rishning o'rtacha yoshining ortishi bilan bog'liq bo'lgan masalalardan ayri holda hal etib bo'lmaydi. Shuningdek, ishlayotganlar sonining qisqarishi, davlat byudjetining xarajatlar qismida ijtimoiy soha xarajatlarning ortishi, aholining mehnatga qobiliyatli qismiga tushadigan og'irlikning ko'payishi, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya jamg'armasi mablag'lari shakllanishi aksariyat qismining ish beruvchilar tomonidan to'lanishi, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi

⁴⁷ Xamdamov Sh. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislari to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 157-b.

jarayonida ishlovchilar ish haqi darajasining ortishi va mutanosib ravishda, qarilikni sug'urtalashdagi ulushining ortib borishi joriy pensiya to'lovlarida kamomadni vujudga keltirib, amaldagi pensiya ta'minotini moliyalashtirishning isloh etilishini taqozo etmoqda.

Aholini ijtimoiy himoyalashda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi g'oyat muhim masala bo'lib, jamg'armaning daromadlari va harajatlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan qator masalalarni hal qilishni talab etadi, xususan:

- *huquqiy jihatdan* – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining qonuniy-huquqiy asosini takomillashtirish;

- *tashkiliy jihatdan* – Xalq banki tizimi tarkibida fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti faoliyatini takomillashtirish;

- *uslubiy jihatdan* – jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining uslubiy asoslarini shakllantirish, hisob-kitob yuritish va hisobotlar tayyorlash;

- *texnik va texnologik jihatdan* – davlat pensiya ta'minoti moliyasi bo'yicha katta hajmdagi axborotni to'plash va qayta ishlashga imkon beradigan samarali faoliyat qiluvchi integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan tizimni faol joriy qilish;

- *kadrlar ta'minoti jihatidan* – jamg'ariladigan pensiya tizimida bevosita xodimlarni jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha qayta o'qitish va malakasini oshirish.

3.2. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlash omillari

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlashga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

- ish bilan band aholi soni;
- jismoniy shaxslar ish haqilarining miqdori;

- demografik jarayonlar;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchilar uchun rag'batlantiruvchi omillarning mavjudligi;
- Xalq banki tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya mablag'lariga foizlar to'lanishi.

1. Ish bilan band aholi soni va uning o'sishi, o'z navbatida, jamg'arib boriladigan pensiya mablag'lari miqdorining oshishiga olib keladi. Chunki, amaldagi qonunchilikka ko'ra ish beruvchilarning, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi majburiydir.

2. O'z navbatida, jismoniy shaxslar ish haqilari miqdorining oshishi ham pensiya mablag'lari miqdorining oshishiga turtki bo'ladi. Sababi, 2005-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqining bir foizi miqdorida amalga oshirilishi belgilangan. Demak, jismoniy shaxs ish haqilari miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga ajratma miqdori ham shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

3. Demografik jarayonlar ham jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Sababi, aholi sonining o'sishi ham, o'z navbatida, istiqbolda ularning mehnat qilishlari evaziga oylik ish haqilarining 1 foizini jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga ajratma qilish imkonini beradi.

Biroq, hozirgi kunda dunyo aholisining o'sish sur'ati pasayib bormoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, u 2016-yilda 1,20 foizni tashkil etmoqda. Vaholanki 1960-yillarda bu ko'rsatkich 2,04 foizga teng bo'lgan edi. Avlodning davomiyligini ta'minlash va aholi soni o'sishiga erishish uchun tug'ish yoshidagi ayollarga 2,6 nafardan bola to'g'ri kelishi kerak. O'zbekistonda keyingi yillarda barqaror demografik vaziyat paydo bo'lib, doimiy holda aholi

sonining tabiiy va umumiy qo'shimcha o'sishi sodir bo'lmoqda. O'zbekistonda tug'ilishning umumiy koeffitsienti 1985-yilda 37,2 promilleni tashkil qilgan bo'lsa, u 2015 va 2016-yillarda mos ravishda 23,5 va 22,8 promillegacha pasaygan. Tug'ilish koeffitsienti o'ta past mamlakatlar bo'lib, Belorussiya, Kanada, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya hisoblansa, juda yuqori guruhga Niger va Uganda davlatlari tegishlidir. O'zbekiston, Turkmaniston, Hindiston, Indoneziya, Meksika mamlakatlarida tug'ilish o'rtacha darajadadir. Respublikamizda vafot etish koeffitsienti har o'rtacha 1000 ta aholi hisobiga 1985-yilda 7,2 kishi chegarasida bo'lib, 2016-yilda o'rtacha 4,8 promilleni tashkil etgan. Respublikamizda aholining o'rtacha yoshi 28 yilga teng bo'lib, demografiya borasida erishilgan eng katta yutuqlardan biri go'dak (1 yoshgacha bo'lgan)lar o'limining 1990-yildagi 34,6 promilledan 2016-yilda 10,5 promillega pasayishidir.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonning doimiy aholisi soni 32,121 million kishini tashkil qildi. Iqtisodiy faol aholining bandlik darajasi esa (iqtisodiyotda band aholining iqtisodiy faol aholi soniga nisbati) 2017 yil yanvar–iyun oylarida 94,8 foizni tashkil etgan⁴⁸. Hozirda O'zbekistonda yashovchi aholining 30,1 foizini 15 yoshgacha bo'lgan bolalar, 60,5 foizini 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan mehnatga layoqatli kishilar, 9,4 foizini 55-60 yoshdan katta bo'lganlar tashkil etadi⁴⁹. Birlashgan millatlar tashkilotining standartlariga ko'ra, quyidagi holatlarda mamlakat aholisi kekxa hisoblanadi: 65 yoshdan oshgan aholi soni jami aholining 7 foizini tashkil qilsa; 14 yoshgacha bolalar soni jami aholi sonining 30 foizidan kam miqdorni tashkil etsa⁵⁰. O'zbekistonda aholi sonining o'sishi, jami aholining 60,5 foizini mehnatga layoqatli kishilar tashkil etishi kabilar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida mablag'larining faol shakllanishi nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

⁴⁸ <http://www.stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1419-o-zbekiston-respublikasining-demografik-holati-4>.

⁴⁹ <http://www.stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1419-o-zbekiston-respublikasining-demografik-holati-4>.

⁵⁰ <http://www.goodchina.ru/v-kopilku-turista/229-pensii-v-kitae-ili-na-chto-zhivut-kitajskie-pensionery.html>.

4. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchilar uchun rag'batlantiruvchi omillarning mavjudligi yoki unga doir ta'sirchan mexanizmning amal qilishi muhim hisoblanadi. Chunki ana shunday omillarning mavjudligi fuqarolarni ixtiyoriy ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etish imkonini beradi va bu hol ushbu tizimning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 4 iyunda 2111-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizomga⁵¹ asosan 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyoz jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlarini O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalariga kamaytirish (soliq chegirmasi) tarzida beriladi.

5. Ma'lumki, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy kiritilgan badallariga inflyatsiya darajasidan kam bo'lmagan miqdorda daromadlar qo'shib kelinmoqda. O'zbekistonda 2016 yilda inflyatsiya darajasi 5,7 foizni tashkil qildi⁵². Demak, Xalq banki jamg'arib boriladigan pensiya mablag'lariga har yili 6-8 foizgacha daromad qo'shib boradi. Qolaversa, ixtiyoriy kiritilgan mablag'larga 2011-yildan boshlab Markaziy bank

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining 2010-yil 3-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma Qarori va shu asosda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom.

⁵² <http://www.cbu.uz/uzc>.

qayta moliyalash stavkasidan (hozirda bu stavka yillik 14 foizni tashkil qiladi) yuqori miqdorda daromadlar qo'shib kelinmoqda. Bu hol Xalq banki tomonidan aholiga qulay va manfaatli bo'lgan xizmatlarni taklif etayotganligini hamda sifatli xizmat ko'rsatish orqali turmush farovonligini yanada yuksaltirayotganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi taraqqiyotini ta'minlashda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- aholi bandligini ta'minlash maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish zarur;

- inflyatsiya sur'atlaridan yuqori turuvchi past risk va daromadga ega bo'lgan hamda pensiya mablag'larini investitsiya qilish imkoniyatini beruvchi diversifikatsiyalashgan moliya bozorlari va aktivlarning mavjud bo'lishini ta'minlash kerak;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi daromadlilikining inflyatsiya darajasidan yuqoriligini ta'minlash va mablag'larni joylashtirishda muqobil manbalarini yaratish lozim;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dexqon xo'jaliklarining a'zolari, boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida majburiy asosida ishtirok etishi zarur;

- fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimi taraqqiyotini ta'minlash maqsadida 2018-2030 yillarga mo'ljallangan "O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish kontsepsiyasi" ishlab chiqilishi lozim. Ushbu kontsepsiyada jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish; jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larini investitsiya qilish hisobiga Xalq bankining resurs bazasini mustahkamlash; jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti monitoringini kuchaytirish yo'nalishlarida faoliyat olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

3.3. Xorij mamlakatlarining jamg'arib boriladigan pensiya tizimi tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari va rivojlantirish istiqbollari

Lotin Amerikasi⁵³ iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar safida bo'lib, 2003-2013 yillarda barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan. Lotin Amerikasida pensiya tizimi islohotlari 1980-yillarda boshlangan. 1981 yilda Chili taqsimlovchi ("pay-as-you-go") pensiya tizimidan jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga o'tdi.

Keyinchalik Chilining pensiya modelidan ko'pchilik mamlakatlar o'z pensiya tizimini tashkil etishda foydalanishdi: 1994 yilda Kolumbiya va Argentina; 1996-yilda Urugvay; 1997 yilda Meksika va Boliviya; 1998 yilda Salvador; 2001 yilda Kosta-Rika; 2003 yilda Dominikan Respublikasi; 2004 yilda Ekvador va Nikaragua.

1980-yillarda Lotin Amerikasida pensiya tizimini isloh qilishning zarurligi quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi: iqtisodiy rivojlanish dinamikasi bilan tavsiflanuvchi murakkab iqtisodiy vaziyat; ichki va tashqa qarz hajmining ko'pligi; ishsizlik darajasining o'sishi; pensionerlar sonining o'sishi; pensiya to'lovlari uchun davlat byudjetidan ajratiladigan dotatsiyalar miqdorining o'sishi. Natijada, ijtimoiy keskinlik yuzaga keldi, bunga pensiya miqdorining kichikligi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, Argentinada pensiyaning o'rtcha miqdori ish haqining 40 foizini tashkil etardi va bu pensionerlarning minimal hayotiy ehtiyojlarini qondirishini ta'minlamadi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida pensiya tizimi quyidagi yo'nalishlarda isloh qilindi: 1) jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy qilish (Chili, Peru); 2) taqsimlovchi pensiya tizimini qayta isloh qilish (Braziliya, Panama, Gonduras, Yamayka); 3) Taqsimlovchi va jamg'arib boriladigan pensiya tizimi elementlarini

⁵³ Antigua-Barbuda, Argentina, Bagama, Barbados, Beliz, Braziliya, Boliviya, Venesuela, Gaiti, Gayana, Gvatemala, Grenada, Gonduras, Dominika, Dominikan Respublikasi, Kolumbiya, Kosta-Rika, Kuba, Meksika, Nikaragua, Panama, Paragvay, Peru, Salvador, Sent-Vinsent-Grenad, Sent-Kits-Nevis, Sent-Lyusiya, Surinam, Trinidad-Tobago, Urugvay, Chili, Ekvador, Yamayka kabi mamlakatlar tegishli.

qorishtirish asosidagi aralash pensiya tizimini amalga oshirish (Argentina, Kolumbiya)⁵⁴.

Taqsimlovchi pensiya tizimi davlat pensiyasi bo'lib, pensiyaning quyi va yuqori chegaralari belgilanganligi, pensiyani hisoblash uslubiyotini tartibga solish qonunchiligi, pensiya to'lovlarini moliyalashtirish, pensiya tizimi faoliyati ustidan davlat boshqaruv va nazorati kabi xususiyatlar bilan farqlanadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi esa xususiy tavsifga ega bo'lib: 1) pensiya ajratmalari (sug'urta badallari) miqdorining qat'iy belgilanganligi, pensiya miqdorining qat'iy belgilanmaganligi (ish haqi miqdoridan kelib chiqib, individual pensiya hisobraqamdagi jamg'armalar miqdoriga, individual pensiya hisobraqamiga ajratmalar miqdoriga va muddatiga, pensiya jamg'armalarini investitsiyalash daromadlilikiga, mamlakatdagi iqtisodiy holat va boshqa makroiqtisodiy omillarga bog'liqligi); 2) pensiya to'lovlarini moliyalashtirishning asosi bo'lib, individual jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlardagi mablag'lar xizmat qilashi; 3) xususiy boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan pensiya fondlarining boshqarilishi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida pensiya islohotlari modeli o'ziga xos xususiyatlarga, umumiylik jihatlariga ega (3.1-jadval). Agar Chili, Meksika, Boliviya va Salvadorda taqsimlovchi pensiya tizimi tugatilgan bo'lsa, boshqa mamlakatlarda esa ishchining tanlash huquqi saqlab qolingan. Ishchilar uchun yangi joriy qilingan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi Meksika, Chili va Boliviya majburiy xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, boshqalarida ixtiyoriydir. Ish haqi hisobidan individual jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga ajratmalar miqdori 4,5 foizdan (Salvadorda) 10 foizgachani (Chili va Kolumbiya) tashkil qiladi. Jamg'arib boriladigan pensiyaga qilingan ajratmalarning minimal daromadlilik darajasi ham farq qiladi.

⁵⁴ Костюнина Г.М. Реформирование пенсионных систем в странах Латинской Америки // Труд за рубежом. – 2007. – №3. – С.79-97.

3.1-jadval

**Lotin Amerikasi mamlakatlarida pensiya
islohotlarining xususiyatlari⁵⁵**

	Chili	Peru	Kolumbiya	Argentina	Urugvay	Meksika	Boliviya	Salvador
Pensiya islohotlarining boshlanish davri	1981 y.	1993 y.	1994 y.	1994 y.	1996 y.	1997 y.	1997 y.	1998 y.
“Pay-as-you-go” davlat tizimi	Tugatilgan	Amalda	Amalda	Amalda	Amalda	Tugatilgan	Tugatilgan	Tugatilgan
Jamg’arib boriladigan pensiya	Majburiy	Ixtiyoriy	Ixtiyoriy	Ixtiyoriy	Ixtiyoriy	Majburiy	Majburiy	Majburiy
Boshqaruvchi pensiya fondlari	AFP	AFP	AFP	AFJP	AFAP	AFORES	AFP	IAFP
Ish haqi hisobidan ajratmalar miqdori, %	10	8	10	7,5	7,5	6,5 + dotatsiya	10	4,5
Mehnatga layoqatsizlik va boquvchisini yo’qotganlik sug’urtasi	Xususiy	Xususiy	Xususiy	Xususiy	Xususiy	Davlat	Xususiy	Xususiy
Pensiyaning eng kam miqdori	Belgilan-gan	Belgilan-magan	Belgilan-gan	Belgilan-gan	Belgilan-gan	Belgilan-gan	Belgilan-magan	Belgilan-gan

Izoh: Urugvayda faqat yuqori maosh oluvchi ishchilarga pensiya tizimida ishtirok etish majburiydir. Peru va Salvadora pensiya tizimiga ajratmalar miqdori oshib bormoqda.

Chilida jamg’arib boriladigan pensiya tizimi shakllantirilganiga ancha yillar bo’lishiga qaramasdan, eski taqsimlovchi pensiya tizimi ham amal qilmoqda. Chilidagi jamg’arib boriladigan pensiya ta’minotining muhim afzalliklaridan biri ishchilar, ya’ni jamg’arib boriladigan pensiya tizimi ishtirokchilari tomonidan ushbu tizimning samaradorligini baholash imkoniyatining mavjudligi hamda jamg’arilgan moliyaviy mablag’larni investitsiyalash nuqtai nazaridan boshqaruvchi kompaniyalarga ko’rsatmalar berishdir. Chilida pensiyaning o’rtacha miqdori 74 ming Chili pesosini tashkil qiladi. Jami ishchilarning 95 foizi jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida ishtirok etadi va ularning ushbu tizimdagi daromadlari yillik 10,9 foizni tashkil qiladi.

Meksika pensiya tizimidagi asosiy o’zgarishlardan biri – pensiya ta’minotining yagona manbai hisoblangan xususiy pensiya fondlarining

⁵⁵ Quiesser M. Pension Reform: Lessons from Latin America. OECD Development Center. Policy Brief №15. – Geneva, 1999. – p.11.

shakllanishidir. Umuman olganda, Meksika pensiya ta'minotining quyidagi jihatlarini alohida qayd etish joiz: davlat sektorida band bo'lganlarning alohida toifalari uchun davlat pensiya ta'minoti; individual jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlarini shakllantirish va raqobat asosida xususiy kompaniyalar tomonidan pensiya fondlarining boshqarilishi; ixtiyoriy asosda ajratma qilinuvchi maxsus individual jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlarini barpo etish.

Pensiya ta'minoti tizimining Chili tajribasi va Meksika amaliyotidan quyidagilar saboq bo'lishi mumkin:

- pensiya ta'minotining darajasi mamlakatdagi iqtisodiy holatga bog'liq, shu jumladan, inflyatsiya darajasi, tashqi va ichki qarz hajmi, bandlik va ishsizlik darajasining o'sish dinamikasi, ish haqi miqdorining o'sish dinamikasi;
- investitsiya portfelini diversifikatsiyalash asosida boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan pensiya uchun qilingan ajratmalarni, mablag'larni boshqarishning samaradorligi;
- davlatning pensiya tizimi regulyatori sifatidagi rolining yuqoriligi, boshqaruvchi kompaniyalar faoliyati ustidan davlatning nazorat funksiyasining kuchaytirilishi;
- iqtisodiy faol aholi sonining o'sib borishi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) – erkin bozor iqtisodiyoti va demokratik printsiplarga asoslangan rivojlangan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy tashkiloti bo'lib, 1948 yilda tashkil etilgan. 1960 yillarda ushbu tashkilotning geografik hududi bir muncha kengaydi va hozirga kelib uning tarkibiga 35 ta⁵⁶ davlat kiradi. IHTTning missiyasi butun dunyoda aholining ijtimoiy farovonligini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan siyosatni olib borishi bilan xususiyatlanadi. Bir vaqtning o'zida aholining ijtimoiy farovonligi pensiya ta'minotini ham qamrab oladi.

Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, aksariyat mamlakatlarda – taqsimlanuvchi davlat hamda majburiy va ixtiyoriy jamg'arib boriladigan – aralash pensiya

⁵⁶ <http://www.oecd.org>.

tizimlari amal qilmoqda. Pensiya tizimining aralash turi moliyaviy barqarorlik va to'lanayotgan pensiya darjasi nuqtai nazaridan samarali hisoblanadi⁵⁷. Jahon amaliyotida jamg'arib boriladigan va taqsimlanuvchi pensiya modellari sof holda kam uchraydi. Bir vaqtning o'zida majburiy va ixtiyoriy jamg'arib boriladigan qismlari mavjud pensiya tizimi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a'zo mamlakatlar orasida faqat Norvegiyada amal qiladi⁵⁸.

IHTTga a'zo mamlakatlarning 34 tasida pensiya ta'minoti uch manba hisobidan amalga oshiriladi⁵⁹:

- davlat tomonidan belgilangan majburiy pensiya (Yangi Zellandiya va Irlandiyadan tashqari, ushbu mamlakatlarda barcha kekxa yoshdagi fuqarolarga byudjetdan nafaqa beriladi, uning miqdori mamlakatdagi o'rtacha ish haqining 40 foizini tashkil qiladi). 27 ta mamlakatda birdamlik pensiya tizimi amal qiladi, ularning 5 tasida (Estoniya, Norvegiya, Polsha, Slovakiya va Shvetsiya) birdamlik pensiya tizimi bilan birga jamg'arib boriladigan (fondlashtirilgan holda) pensiya tizimi elementlari ham amal qiladi. Yana 5 ta mamlakatda (Avstraliya, Chili, Daniya, Isroil va Meksika) asosan fondlashtirilgan pensiya tizimi amal qiladi;

- majburiy, ya'ni kasb pensiyalari. Bu turdagi pensiyalar milliy qonunchilik, tarmoqlar kelishuvi yoki jamoa shartnomalari bilan belgilanadi va ish beruvchilar tomonidan, ayrim hollarda esa ishchilar tomonidan moliyalashtiriladi;

- ixtiyoriy pensiyalar, ya'ni ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiyalar (20 ta mamlakatda ish beruvchi o'z ishchilarining pensiyalarini o'zi belgilashi va moliyalashtirishi mumkin).

IHTT mamlakatlarida pensiya ta'minoti YaIMning 8 foizini tashkil qiladi va bu ko'rsatkich 1980-yilga nisbatan 2.2 f.p.ga ko'p demakdir⁶⁰. Pensiya badallari IHTT mamlakatlari milliy daromadining 5,2 foizini tashkil qiladi.

⁵⁷ Федотов А.И. Анализ моделей построения пенсионных систем // Труды ИСА РАН. 2008. № 38. С. 168–173.; Stalebrink J. Public pension funds and assumed rates of return: an empirical examination of public sector defined benefit pension plans // American review of public administration. 2014. № 1(44). P. 92–111.

⁵⁸ Rozanov A. Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015. № 10. P. 275–295.

⁵⁹ Официальный сайт Организации экономического сотрудничества и развития [Электронный ресурс]. – Режим доступа: –URL: <http://www.oecd.org>.–Загл.с экрана.

⁶⁰ <https://www.vedomosti.ru/finance/articles/2014/11/25/20-vvp-na-obschestvo>.

IHTTga a'zo mamlakatlarning aksariyatida yuqori daromad bilan mehnat faoliyatini yakunlashning umumqabul qilingan davri erkaklarda 65 yoshni tashkil qiladi (3.2-jadval).

3.2-jadval

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlarida pensiya yoshini oshirishga qaratilgan islohotlar⁶¹

Mamlakatlar	Dastlabki davrlarda pensiyaga chiqish yoshi	2010 yilda pensiya chiqish yoshi	Istiqboldagi pensiyaga chiqish yoshi	Pensiya yoshining oshirilishi, yilda
Erkaklar				
Vengriya	-	60	65 (2030 y.)	5
Gretsiya	-	57	60 (2020 y.)	3
Italiya	55 (2000 y.)	59	65 (2030 y.)	10
Yangi Zellandiya	60 (1993 y.)	65	-	5
Chexiya	60 (2000 y.)	61	65 (2040 y.)	5
Janubiy Koreya	-	60	65 (2050 y.)	5
Ayollar				
Avstraliya	60 (2000 y.)	62	67 (2040 y.)	7
Buyuk Britaniya	-	60	60 (2020 y.) va 68 (2050 y.)	8
Vengriya	55 (2000 y.)	59	65 (2030 y.)	10
Germaniya	60 (2000 y.)	65	-	5
Gretsiya	-	57	60 (2018 y.)	3
Yangi Zellandiya	60 (1993 y.)	65	-	5
Slovakiya	-	57	62 (2020 y.)	5
Chexiya	-	57	65 (2035 y.)	8

Aksariyat mamlakatlar uchun so'nggi yillarda pensiyaga chiqish yoshining oshirilish tendentsiyasi xarakterlidir. Bunday holat ushbu mamlakatlarda o'ziga xos demografik muammolarning mavjudligini anglatadi. Pensiyaga chiqishning eng uzoq davri Norvegiyada kuzatiladi (67 yosh). G'arb mamlakatlarida fuqarolarning hayot davomiyligi o'zgarmagan yoki biroz oshganiga qaramasdan mehnatga layoqatli aholi soni qisqarib bormoqda. Keksa yoshdagi aholi soni oshib


⁶¹ Уайтхауз Э. Пенсионная панорама. Пенсионные системы 53 стран. М., 2008. (<http://ekonomika.snauka.ru/2015/07/9357>).

bormoqda va bu barcha mehnatga layoqatli aholi zimmasidagi “pensiya yuki”ning oshishini bildiradi. Bu hol, nafaqat, turli mamlakatlar pensiya tizimining moliyaviy holatiga, balki istiqbolda iqtisodiy taraqqiyotga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi.

IHTT mamlakatlarida, shuningdek, ijtimoiy yo’naltirilgan taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyati uch darajali pensiya tizimiga ega. Birinchi daraja – bu mehnat (birdamlik-sug’urta) pensiyasi. Bunda ish beruvchi va ishlovchilarning sug’urta badallari hisobidan davlat majburiy pensiya sug’urta tizimi joriy etiladi. Ikkinchi daraja – bu korporativ (jamg’arib boriladigan) pensiya bo’lib, bunda korxona yoki tarmoq darajasida ishchilar uchun qo’shimcha sug’urta badallari joriy etiladi. Uchinchi daraja – bu xususiy (jamg’arib boriladigan) pensiya bo’lib, bunda ishchining o’z mablag’lari hisobidan ajratmalar nodavlat pensiya fondiga, sug’urta kompaniyasiga yoki kredit tashkilotiga shartnoma asosida ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi. Ishchilarning o’z pensiya jamg’armalarini rag’batlantirish maqsadida davlat tomonidan muayyan soliq imtiyozlari belgilanadi.

Pensiya ta’minoti tizimiga baho berishda pensiyalarning o’rtacha miqdori ko’rsatkichi ham muhim ahamiyatga ega. Dunyoning turli mamlakatlarida pensiyalarning o’rtacha miqdoriga nazar tashlaydigan bo’lsak, Lyuksemburgda bu ko’rsatkich 2268 AQSh dollarini, Hindistonda atigi 18 AQSh dollarini tashkil qiladi (3.2-rasm). Albatta, bu ko’rsatkich miqdori mamlakatdagi bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarga bog’liq bo’lib, omillar tarkibida demografik omillar (aholi soni, yoshi, tarkibi va boshq) birlamchi ahamiyat kasb etadi.

So’nggi o’n yillikda IHTT mamlakatlarining aksariyatida pensiya ta’minoti tizimidagi turli xildagi tarkibiy islohotlar natijasida “avlodlar birdamligi” printsipligiga asoslangan pensiya tizimining ahamiyati pasayib, jamg’arib boriladigan pensiya tizimining roli oshib bormoqda va pensiya tizimi diversifikatsiyalashib bormoqda.



3.2-rasm. Dunyoning turli mamlakatlarida pensiyalarning o'rtacha miqdori, AQSh dollari hisobida⁶²

Shuni ta'kidlash joizki, IHTT mamlakatlarida pensiya tizimini isloh qilish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

- pensiyaga chiqish yoshini bosqichma-bosqich oshirib borish (Avtraliya, Avstriya, Belgiya, Daniya, Germaniya, Gretsiya, Isroil, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Polsha, Sloveniya, AQSh, Turkiya, Frantsiya, Chexiya, Estoniya, Yaponiya);

- fuqarolarning pensiyaga chiqqanlaridan so'ng hayot davomiyligi oshishiga muvofiq ravishda pensiyaga chiqish yoshini oshirish (Buyuk Britaniya, Italiya, Portugaliya, Slovakich);

⁶² OECD (2015), Pensions at a Glance 2015:OECD and G20 indicators, OECD Publishing, Paris. (http://dx.doi.org/10.1787/pensions_glance-2015-en). <https://www.adme.ru/svoboda-puteshestviya/skolko-platyat-pensioneram-v-raznyh-stranah-mira-1338365/> (Ma'lumotlar muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy kursi asosida 17.01.2018 yil holatiga aniqlangan).

– minimal mehnat stajiga bo'lgan talablarni oshirish (Belgiya, Buyuk Britaniya, Polsha, Sloveniya, Chexiya);

– kech pensiyaga chiqishni rag'batlantirish (Germaniya, Italiya, Kanada, Janubiy Koreya, AQSh, Frantsiya, Shveytsariya, Yaponiya);

– muddatidan oldin pensiyaga chiqish shartlarini kuchaytirish va ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlarini cheklash (Avstriya, Belgiya, Germaniya, Daniya, Isroil, Islandiya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya, Portugaliya, AQSh, Frantsiya, Shveytsariya, Yaponiya);

Xulosa qilib aytganda, IHTT mamlakatlaridagi pensiya islohotlari tajribalari ko'rsatishicha, pensiya tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalish pensiya majburiyatlarini kamaytirish va pensiya tizimi aktivlarini oshirish evaziga pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini oshirish hisoblanadi. Ushbu maqsadda aksariyat mamlakatlar pensiyaga chiqish yoshini oshirish, erta pensiyaga chiqish muddatini cheklash, pensiyaga chiqish uchun zarur bo'lgan minimal mehnat stajinini oshirish kabi islohotlar amalga oshirildi. 2009-2015 yillar davomida IHTTga a'zo mamlakatlarning 34 tasida pensiya tizimiga 129 ta o'zgarishlar kiritilgan va isloh qilingan⁶³. Hozirgi kunda IHTTga a'zo mamlakatlarning aksariyatida kombinatsiyalashgan pensiya tizimi amal qiladi.

Aholining qarishi va ularni pensiya bilan ta'minlash muammosi Shvetsiya davlatiga ham xosdir. Shvetsiya pensiya tizimi taraqqiyotining 4 ta bosqichiini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: 1913-yil – universal pensiya ta'minoti tizimi joriy qilindi; 1948-yilda – xalq pensiyalari joriy qilindi; 1960-yilda – xizmat qilgan yillari uchun pensiyalar joriy qilindi (qo'shimcha mehnat pensiyasi); 1999-yilda – aralash pensiya tizimiga o'tildi va hozirgacha saqlanib qolgan.

Mamlakatda demografik holat va vaziyatning yomonlashib borishi hamda shu bilan bog'liq muammolar bosimi pensiya tizimini jiddiy isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. 1998 yilda Parlament tomonidan pensiya tizimini isloh qilish ishlari

⁶³ OECD Pensions at a Glance 2013: OECD and G20 Indicators, OECD Publishing, 2013. – P.18.


boshlandi, 2003 yildan pensiya tizimi to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi va kuchga kirdi.

Shartli jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mohiyati jihatidan taqsimlovchi (PAYG) pensiya tizimini anglatadi. Ushbu pensiya tizimi bo'yicha mablag'lar badallar (fuqarolar ish haqining 16 foizi miqdorida) hisobidan shakllantiriladi, shakllantirilgan mablag'lar shartli pensiya majburiyatlari hisoblanadi va ushbu mablag'lar mamlakatdagi makroiqtisodiy ko'rsatkchlardan kelib chiqib indeksatsiya qilinadi. Fuqaroning asosiy pensiyasi miqdori ushbu shartli jamg'arib borilgan mablag'lar miqdorini kutilayotgan umr davomiyligiga bo'lish orqali aniqlanadi (shartli jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga to'lovlarni amalga oshirish fuqarolarning 61 yoshga to'lgunlariga qadar amal qiladi).

Individual jamg'arib boriladigan pensiya (Premiepension) fuqarolar ish haqining 2,5 foizini ajratma qilish hisobidan shakllantiriladi va fuqaroning individul pensiya hisobraqamlariga to'planadi. Ushbu mablag'lar bozor mexanizmlaridan foydalangan holda investitsiya qiluvchi Pensiya fondlari boshqaruviga beriladi. Individual jamg'arib boriladigan pensiya shartli jamg'arib boriladigan pensiya bilan bir vaqtda amalga oshiriladi (individual jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga to'lovlarni amalga oshirish fuqarolarning 61 yoshga to'lgunlariga qadar amal qiladi).

Ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya ish beruvchi va ishlovchi o'rtasidagi shartnomaga asoslanadi va milliy iqtisodiyotda bank aholining 90 foizini qamrab oladi.

Shvetsiyada jamg'arib boriladigan pensiya tizimi 1999-yildan boshlab joriy qilindi. Bunda jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga to'lanishi lozim bo'lgan belgilangan badal stavkasi 2,5 foizni tashkil qiladi va badallar markazlashtirilgan holda jamlanadi (3.3-rasm). Jamg'arib boriladigan pensiya tizimidagi mablag'lar bir nechta investitsiya fondlari o'rtasida taqsimlanadi va ushbu fondlar tomonidan turli moliyaviy vositalarga investitsiya qilinadi.



3.3-rasm. Shvetsiyada pensiya uchun badal stavkalari, foizda⁶⁴

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’kidlash joizki Shvetsiya pensiya tizimi ko’p darajali bo’lib, birinchisi, belgilangan to’lovlar tamoyiliga asoslangan majburiy taqsimlovchi pensiya tizimi, ikkinchisi, majburiy jamg’arib boriladigan pensiya tizimi, uchinchisi, qo’shimcha kasbiy va individual pensiya jamg’armalari. Shvetsiyada aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat muhim o’rin egallaydi.

2002 yilda Rossiya Federatsiyasida pensiya islohotlariga yo’l ochilganidan keyin har bir fuqaro o’z pensiya jamg’armasini hususiy yoki davlat boshqaruv kompaniyasiga yo’naltirilishini hal qilishi mumkin bo’ldi. Qanday tanlov qilishni bilganlar yoki bir qarorga kelaolmaganlar uchun davlat o’zi bunday qarorni qabul qiladi, yani pulni avtomatik ravishda Tashqi iqtisodiy bank davlat kompaniyasiga jo’natadi. Biroq, “Majburiy pensiya sug’urtasi to’g’risida”gi Federal qonunga ko’ra nafaqat davlat Pensiya jamg’armasi, balki xususiy moliya institutlari ham sug’urtachi sifatida chiqishi mumkin, shu sababli Rossiyaning istalgan fuqarosi o’z ixtiyoriga ko’ra o’zining jamg’arib boriladigan pensiyasini Tashqi iqtisodiy bankdan istalgan nodavlat pensiya jamg’armasiga va xususiy boshqaruv kompaniyasiga, ularning joylashgan o’rnidan qat’i nazar, o’tkazishi mumkin⁶⁵.

Xorijiy davlatlar pensiya jamg’armalari modellariga odatda:

⁶⁴ <http://pension-npf.ru/index.php@src=153.html>.

⁶⁵ Soatov J.S. Xorij tajribasi asosida pensiya modellarini tatbiq qilish islohotlari. “Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish” mavzusidagi O’zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag’ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to’plami. – Toshkent, 2017-yil 15-noyabr. 101-b.

- davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armalari;
- majburiy tibbiy sug'urta jamg'armalari;
- jamg'arib boriladigan xususiy pensiya jamg'armalari;
- aholi bandligi jamg'armalari.

Yuqorida qayd etilgan modellar jahonning biron bir mamlakatida deyarli sof holatda uchramaydi. Ijtimoiy davlatning “ideal tiplari” sifatida qaraladigan bu modellarning har biri o'z avfzaliklari va kamchiliklariga ega. Amalda liberal, korporativ va sotsial-demokratik modellar unsurlarining muayyan uyg'unligi ko'p kuzatiladi. Ko'pgina mamlakatlarda eng kam ish xaqi miqdori va uni ist'emol narxlarining o'sishga qarab vaqti-vaqti bilan indeksatsiya qilish to'g'risidagi qonun kam ta'minlangan fuqarolarni himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Italiyada indeksatsiya mexanizmini narxlar indeksi bir foizga o'sgan holda, Daniya 3%ga, Belgiyada 2%ga, Lyuksemburgda 2,5%ga o'sganida ishga solinadi. Ayrim mamlakatlar AQSh, Kanada indeksatsiya mehnat qiladigan butun aholini emas, balki yollanma hodimlarning bir qismini qamrab oladi.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston pensiya tizimining samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Pensiya tizimini bosqichma-bosqich isloh etish va xususiy jamg'arib boriladigan pensiya fondlarini tashkil etishga doir davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

2. Aholining o'rtacha umr ko'rish yoshining oshishi bilan pensiya yoshini ham oshirish hamda erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshlarini tenglashtirish;

3. Pensiya tizimidagi turli imtiyozlarni va pensiyaga barvaqt chiqishni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

4. O'rtacha pensiyaning o'rtacha ish haqidagi ulushini oshirishga, ya'ni qoplash koeffitsientini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

5. Pensiya miqdorini mehnat stajiga qarab belgilashdan sug'urta stajiga qarab belgilashga bosqichma-bosqich o'tish.

O'zbekistonda xususiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirish quyidagi ijobiy natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi: pensionerlarning moddiy ta'minotini yaxshilanishi; aholining investitsion faolligini oshishi; pensiya tizimining moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish maqsadida aholi o'rtasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining mexanizmi va afzalliklari to'g'risidagi tushuntirish ishlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini doimiy asosda amalga oshirib borish zarur. Bunda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larni byudjetga ajratmalarni kamaytirish hisobiga shakllantirish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolarning manfaatlarini kamsitmaydigan tartibiga alohida e'tibor berish kerak. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining printsiptial xususiyatlari hamda uni joriy etishning ijobiy tajribasini yoritishda ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur.

3-bob bo'yicha xulosa:

– jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi o'ziga xos muammolar, birinchidan, ushbu tizimda moliyaviy risk darajasi yuqoriligi, ikkinchidan, inflyatsiya darajasining salbiy ta'siri, uchinchidan, jamg'ariladigan pensiya mablag'larini investitsiyalashdagi o'ziga xos murakkabliklar, jumladan, investitsiyalash obyektni tanlash va mavjud risklarni pasaytirish, to'rtinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarga ta'sirchanligi kabilardan iborat;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlashda: ish bilan band aholi soni; jismoniy shaxslar ish haqilarining miqdori; demografik jarayonlar; jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchilar uchun rag'batlantiruvchi omillarning mavjudligi; Xalq banki tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya mablag'lariga foizlar to'lanishi кабилар энг муҳим омиллардан ҳисобланади;

– jahon miqyosida pensiya ta'minoti sohasidagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, aholi daromadining o'sishi bilan bir qatorda, pensiya ta'minoti tizimlari davlat tizimidan individualashtirish, ya'ni jamg'arma tizimlariga qarab

harakatlanmoqda. Bu kabi trend doirasida pensiya ta'minoti tizimlarining uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy bardavomiyligini takomillashtirish uch darajali model⁶⁶ yaratish orqali tavsiya qilinadi. Bunday yo'l bilan yondashish quyidagi chora-tadbirlarni ko'zda tutadi: a) inflyatsiya sur'atlaridan yuqori turuvchi past risk va daromadga ega bo'lgan hamda pensiya mablag'larini investitsiya qilish imkoniyatini beruvchi diversifikatsiyalashgan moliya bozorlari va aktivlarning mavjud bo'lishi; b) aholining to'la band bo'lishi;

– xorijiy davlatlar tajribasidan ma'lumki, pensiya jamg'armalarining mablag'lari investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Ushbu mablag'lar o'z xususiyatiga ko'ra “uzun pullar” bo'lib, ularni investitsiyalarni moliyalashtirish uchun jalb qilish transformatsiya riskini kamaytiradi. Shuning uchun iqtisodiyot tarmoqlarini tarkibiy qayta qurish va modernizatsiya qilishda pensiya jamg'armalarini investitsiyalarga samarali transformatsiya qilish muhim masala bo'lib qolmoqda;

– xorij tajribasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, pensiya xarajatlarining faqatgina davlat tomonidan moliyalashtirilishi etarli samara bermaydi. Rivojlangan mamlakatlar pensiya tizimini moliyalashtirish tajribasini tadqiq etish natijalariga ko'ra, pensiya tizimida bir vaqtning o'zida uch bosqichli pensiya dasturlari amal qilishini kuzatish mumkin: minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional pensiya dasturi, fuqarolar tomonidan ixtiyoriy tarzda xususiy pensiya sug'urtalarini amalga oshirishlari. Mazkur holat, o'z navbatida, pensiya fondlarini xususiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan bir qatorda milliy iqtisodiyotning ichki investitsion jarayonlarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

⁶⁶ U o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) davlat tomonidan kafolatlangan eng kam pensiya miqdori (ish staji va oylik ish haqidan qat'iy nazar barcha fuqarolar oladi); 2) majburiy jamg'arma sxemasi (markazlashtirilan yoki hususiy boshqaruv ostida). Pensiya to'lovi miqdori pensionerlarning individual hisob raqamlarida jamg'arib borgan mablag'lari, hamda turli xil aktivlarga qilgan sarmoyalari natijasida olingan daromadlarga bog'liq; 3) moliyaviy institutlarda ixtiyoriy ravishdagi jamg'arma tizimi (hususiy sug'urta).

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirish istiqbollari mavzusida olib borilgan izlanishlar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Pensionerlarning farovonligini qo'shimcha ravishda oshirish uchun maqsadli fondlarini shakllantirish hamda undan foydalanish shakl va usullarining yig'indisidan iborat iqtisodiy-huquqiy munosabatlar tizimiga jamg'arib boriladigan pensiya tizimi deyiladi;

2. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: umumiy va majburiy xarakteri; kishilarning ijtimoiy himoyalash huquqining ta'minlanishi; turli xil pensiya tizimining bir vaqtning o'zida amal qilishidagi mustaqilligi va o'zini-o'zi idora qilish sharoitida majburiy jamg'arib boriladigan pensiya bo'yicha to'lovlarning davlat tomonidan kafolatlanishi; tizimda qatnashuvchi shaxs va ish beruvchini moliyaviy ishtirokining majburiyligi; tizimda qatnashuvchi shaxsga uning jamg'argan badallari hisobidan turli shakldagi xizmatlar ko'rsatilishi; tizimda qatnashuvchi barcha shaxslarning harajatlarini moliyalashtirish bo'yicha majburiyat va natijada ega bo'lingan huquq va kafolatlar nuqtai nazaridan tengligining ta'minlanishi.

3. Jamiyatdagi demografik o'zgarishlar pensiya tizimida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga chiqardi va uning echimi sifatida 1994-yilda Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi tomonidan jamg'ariladigan pensiya tizimi modeli ishlab chiqildi, XIX asr oxirida Boliviya, Chili, Salvador, Meksika va Qozog'iston jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tdi;

4. Xorij mamlakatlari tajribalari ko'rsatishicha, jamg'arib boriladigan pensiya tizimida davlat va xususiy pensiya fondlari hamda korporativ pensiya dasturlari muhim o'rin egallaydi va jamg'arib boriladigan pensiya jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va kelgusida fuqaroning moddiy ta'minotini ko'paytirishning asosiy shart-sharoitlaridan biridir.

5. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi nazoratining asosiy vazifalari

pensiya mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlash, tizimning fuqarolar oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash hamda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy ishtirok etuvchilar uchun rag'batlantirishning ta'sirchan choralari ko'rishdan iborat.

6. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotidagi o'ziga xos muammolar, birinchidan, ushbu tizimda moliyaviy risk darajasi yuqoriligi, ikkinchidan, inflyatsiya darajasining salbiy ta'siri, uchinchidan, jamg'ariladigan pensiya mablag'larini investitsiyalashdagi o'ziga xos murakkabliklar, jumladan, investitsiyalash obyekti tanlash va mavjud risklarni pasaytirish, to'rtinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarga ta'sirchanligi kabilardan iborat;

7. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi mutanosibligini ta'minlashda: ish bilan band aholi soni; jismoniy shaxslar ish haqilarining miqdori; demografik jarayonlar; jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriy asosda ishtirok etuvchilar uchun rag'batlantiruvchi omillarning mavjudligi; Xalq banki tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya mablag'lariga foizlar to'lanishi kabilardan eng muhim omillardan hisoblanadi;

8. O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishda quyidagi tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

8.1. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini samarali investitsiya qilish va daromadlilik darajasini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- mazkur pensiya tizimida jamg'arilgan mablag'larning qoldiq qismini chet el valyutasiga almashtirib, shundan so'ng ularni investitsiya qilish kerak. Buning natijasida milliy valyuta – so'mning devalvatsiyasi natijasida mablag'lar qiymatini yo'qotishning oldi olinadi;

- davlat kafolati asosida ipoteka obligatsiyalari emissiya qilib, ularga jamg'arilib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini jalb qilish lozim. Shunda ushbu qimmatli qog'ozlarning risk darajasi past bo'lib, aholini uy-joy bilan ta'minlashni moliyalashtirishdagi roli oshadi;

– “Halq banki”da hisobga olinadigan jamg’arilib boriladigan pensiya mablag’larni boshqarishni tanlov asosda aniqlanadigan ixtisoslashgan boshqaruvchi kompaniyaga berish lozim. Mazkur kompaniya mablag’larni professional asosda boshqarib, uning ko’payishiga va inflyatsiya darajasidan himoya qilishga ko’maklashadi;

– tadbirkorlik bilan shug’ullanmoqchi bo’lgan respublikamiz fuqarolari bank va boshqa moliya institutlarining mikrokreditlaridan foydalanishda jamg’arilib boriladigan pensiya tizimidagi mablag’laridan kafolat sifatida foydalanishga ruxsat berish lozim. Chunki ko’pchilik fuqarolar tadbirkorlikni boshlashlari uchun kredit olishda ta’minot yo’qligi uchun qiynalmoqda.

8.2. Ko’plab mamlakatlarda xususiy pensiya fondlarini davlat tomonidan nazorat qilish kuchaytirilmoqda va investitsiyalar kiritilishi mumkin bo’lgan qimmatli qog’ozlar turlari belgilanmoqda. Shuni hisobga olib, aholining pensiya tizimidagi faolligini oshirish maqsadida xususiy pensiya fondlarini tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun, eng avvalo, xususiy pensiya fondlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish, qimmatbaho qog’ozlar bozorini, investitsiya bozorini rivojlantirish zarur bo’ladi.

8.3. Mamlakatiizda fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag’lari ham muddatiga ko’ra “uzun” moliyaviy resurslar sifatida qaraladi. Ish beruvchi tomonidan xodimga ish haqi hisoblanib, uni to’lash bilan bir vaqtda jamg’arma hisobiga tegishli summa o’tkaziladi. Bizning fikrimizcha, hozirda jamg’armani shakllantirishda ixtiyoriy badallar ulushi sezilarsiz salmoqka ega. Shu jihatidan ushbu tizimni yanada takomillashtirish va nodavlat pensiya jamg’armalari bilan shug’ullanuvchi moliyaviy tashkilotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo’ladi.

8.4. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minotini yanada takomillashtirish maqsadida 2016-2020-yillarga mo’ljallangan “O’zbekistonda jamg’arib boriladigan pensiya ta’minotini rivojlantirish kontseptsiyasi” ishlab chiqilishi lozim. Kontseptsiyada jamg’arib boriladigan pensiya ta’minotining me’yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish; jamg’arib boriladigan pensiya

mablag'larini investitsiya qilish hisobiga Xalq bankining resurs bazasini mustahkamlash; jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti monitoringini kuchaytirish yo'nalishlarida faoliyat olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

8.5. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish maqsadida aholi o'rtasida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining mexanizmi va afzalliklari to'g'risidagi tushuntirish ishlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini doimiy asosda amalga oshirib borish zarur.

8.6. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi taraqqiyotini ta'minlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi: aholi bandligini ta'minlash maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish zarur; inflyatsiya sur'atlaridan yuqori turuvchi past risk va daromadga ega bo'lgan hamda pensiya mablag'larini investitsiya qilish imkoniyatini beruvchi diversifikatsiyalashgan moliya bozorlari va aktivlarning mavjud bo'lishini ta'minlash kerak; jamg'arib boriladigan pensiya tizimi daromadlilikining inflyatsiya darajasidan yuqoriligini ta'minlash va mablag'larni joylashtirishda muqobil manbalarini yaratish lozim; barcha fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida majburiy asosida ishtirok etishi zarur; fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq; jamg'arib boriladigan pensiya tizimi taraqqiyotini ta'minlash maqsadida 2018-2030 yillarga mo'ljallangan "O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi" ishlab chiqilishi lozim. Ushbu kontseptsiyada jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining huquqiy-me'yoriy bazasini yanada takomillashtirish, mablag'larni investitsiya qilish hisobiga Xalq bankining resurs bazasini mustahkamlash; jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti monitoringini kuchaytirish yo'nalishlarida faoliyat olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2007-yil 25-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrdagi "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasining 2005-yil 23-sentyabrdagi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 28-iyundagi "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-110-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrdagi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 595-sonli Qarori.

12. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

13. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

14. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

15. “Fuqarolarning shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag’larni to’lash tartibi to’g’risida”gi Nizom. 2004-yil 21-dekabr.

16. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006 yil 7 oktyabrdagi 88-sonli va 282-V sonli qarori bilan tasdiqlangan “Jamg’arib boriladigan pensiya tizimi mablag’larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to’g’risida”gi Nizom.

17. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 4-iyunda 2111-son bilan davlat ro’yxatiga olingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo’naltiriladigan mablag’larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i bo’yicha imtiyozni qo’llash tartibi to’g’risida”gi Nizom.

18. Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta’minoti. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYa”, 2015. – 232 b.

19. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К⁰», 2009. – 576 с.

20. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: “Noshir”, 2012. – 676 b.

21. Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislar to’plami. 2017-yil 14-mart. –T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 11-16-b.

22. Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. 2010. - № 4. 21-27-br.
23. Влияние единого социального платежа на занятость и финансовые показатели предприятий в Республики Узбекистан. Аналитическая записка. УНДП Узбекистан. Ташкент – 2015. – С. 6
24. Голубева С.В. Развитие пенсионных систем зарубежных стран и России в условиях демографического старения: автореф дис.к.е.н. – М.: «Российский университет дружбы народов», 2008. – С. 6.
25. Давронов Ш.З. Развитие устойчивого накопительного пенсионного обеспечения в банковской системе Узбекистана. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislari to’plami. 2017-yil 14-mart. – T.: “Iqtisod moliya”, 2017. 120-121-b..
26. Nosirov E. va boshq. Investitsiya risklarini boshqarish. O’quv qo’llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 148 b.
27. Soatov J.S. Xorij tajribasi asosida pensiya modellarini tatbiq qilish islohotlari. “Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish” mavzusidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag’ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to’plami. – Toshkent, 2017 yil 15 noyabr. 101-b.
28. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 288 p.
29. O‘zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom.
30. Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to’lovlaridan nima bilan farqlanadi?. – Toshkent: “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. 5-b.

31. Федотов А.И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах. Труды Института системного анализа Российской академии наук. 2006. – С. 309.

32. Ziyadullaev M.J. Pensiya ta'minotidagi islohotlar va yaratilgan interaktiv xizmatlar. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 19-21-b.

33. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. – 660 b.

34. Mamanazarov M.A., G'aniev A.Yo. Jamg'ariladigan pensiya tizimining afzalliklari va kamchiliklari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusidagi O'zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. – Toshkent, 2017 yil 15 noyabr. 76-77-b.

35. Majidov N. Niyazov M. Pensiya tizimini tartibga solishning xorij tajribasi. "Biznes-ekspert" jurnali, 2016. 11-son. 40-b.

36. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg'armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013. 13-b.

37. O'lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Sharq", 2006. – 448 b.

38. Internet saytlari:

- www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali);
- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti);
- www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi);
- www.stat.uz (O'zbekiston Davlat statistikasi qo'mitasi sayti);
- www.pfru.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining sayti);
- www.xb.uz. (Xalq banki sayti);
- www.cbu.uz. (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti).

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining qonuniy asosini tashkil qiluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar

№	Huquqiy-me'yoriy hujjatning nomi	Qabul qilingan sanasi (kun, oy, yil)	Izoh
1.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi	1992-yil 8-dekabr	Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega
2.	O'zbekiston Respublikasining "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni	2004-yil 2-dekabr 702-II-son	O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini joriy etish hamda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarni tartibga solish
3.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori	2004-yil 21-dekabr 595-son	Pensionerlarning farovonligini qo'shimcha ravishda oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ega. 2005-yil 1-yanvardan boshlab amaldagi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimiga qo'shimcha ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi joriy etildi. 2005-yildan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi)ning bir foizi miqdorida amalga oshirilishi belgilandi.
4.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qaroriga ilova qilingan "Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizom	2004-yil 21-dekabr 595-son	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarni shaxsiy hisobga qo'yishni tashkil etishning normativ-huquqiy asosini, printsiplari va mexanizmlarini belgilaydi.

5.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qaroriga ilova qilingan "Xalq bankida fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni kiritish tartibi to'g'risida"gi Nizom	2004-yil 21-dekabr 595-son	Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ularga majburiy va ixtiyoriy badallarni kiritish tartibini belgilaydi.
6.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qaroriga ilova qilingan "Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag'larni to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom	2004-yil 21-dekabr 595-son	Xalq bankida ochilgan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridan mablag'larni to'lash tartibini belgilaydi.
7.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qaroriga ilova qilingan "Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi to'g'risida"gi Nizom	2004-yil 21-dekabr 595-son	Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchalari shaklini va mazmunini, shuningdek ularni hisobga olish, saqlash, ochish va yuritish tartibini belgilaydi.

	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining qo'shma Qarori asosida tasdiqlangan "Ish beruvchilar tomonidan xodimlarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallarni to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaviy xati	2005-yil 31-yanvar	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shu jumladan, ish beruvchilar tomonidan xodimlarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni to'lash tartibini belgilaydi.
8.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining "Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni qo'shish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma Qarori va shu asosda tasdiqlangan "Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni qo'shish va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom	2005 yil 29 avgust, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 6 oktyabrda 1515-son bilan davlat ro'yxatiga olingan	Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni qo'shish va to'lash tartibini belgilaydi.
9.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori	2005-yil 28-iyun PQ-110-son	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining barqaror ishlashini va texnika bilan tegishli darajada jihozlanishini ta'minlash maqsadiga ega. Fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar byudjetga to'lanadigan soliqlar va majburiy to'lovlarga tenglashtirildi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining barqaror ishlashi uchun Xalq bankini bosqichma-bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi hamda dasturlari bilan ta'minlash tadbirlari va xarajatlarning prognoz ko'rsatkichlari dasturi ishlab chiqildi va ma'qullandi.
10.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining qo'shma Qarori asosida tasdiqlangan "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom	2006-yil 7-oktyabr 88-son va 282-V-son	Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investitsiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan, moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibini belgilab beradi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini samarali joylashtirishni tashkil etish maqsadida Moliya vazirligi, Markaziy bank va Xalq bankining vakillaridan iborat bo'lgan Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi.
11.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi	2010-yil 3-may	2010-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya

	Davlat soliq qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma Qarori va shu asosda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 4 iyunda 2111-son bilan davlat ro'yxatiga olingan	hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi. Nizomda nazarda tutilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyoz jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlarini O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalariga kamaytirish tarzida beriladi. Soliq chegirmasi soliq solinadigan ish haqi va (yoki) boshqa daromadlarini o'zining jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriy ravishda o'tkazgan jismoniy shaxsga beriladi.
12.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarori	2010 yil 26 noyabr, PQ-1438-son	2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi. Unga ko'ra jamg'ariladigan pensiya tizimini rivojlantirish va yanada kengaytirish tadbirlari belgilandi. Jumladan: fuqarolarning ixtiyoriy badallari hisobidan jamg'ariladigan pensiya tizimiga tushumlar miqdorini ko'paytirishning rag'batlantiruvchi choralarini amalga oshirish; jamg'ariladigan pensiya tizimidagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tijorat banklari orqali yuqori likvidli moliyaviy vositalarga yo'naltirish.
13.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-son qaroriga 9-ilova "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari".		Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan, byudjetga to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromatlardan "0" stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad (eng kam ish haqining bir baravari) chegirilgan holda 1 foiz miqdori fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladi.
14.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 maydagi "Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-son qarori bilan tasdiqlangan Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 145-sonli Qarori		Har bir ish beruvchi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunigacha har oyda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining yagona ma'lumotlar elektron bazasi formatida xodimlarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar reestrini shakllantirishi hamda elektron manbalarda joylardagi Xalq banki filialiga taqdim etishi yoki uni bevosita umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali Xalq bankining axborot tizimiga uzatishi shart.
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori	2017 yil 29 dekabr, PQ-3454-son	Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha ajratmalar 2 foiz miqdorida belgilandi. Bunday holat jamg'ariladigan pensiya hisobvaraqlariga ko'proq mablag' yig'ilishini va kelgusida ko'proq mablag' aholi ixtiyorida bo'lishini bildiradi hamda aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish va qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.